

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ALIKULOVA MUXAYYO SHEROVNA

**RIVOJLANTIRUVCHI
MARKAZLARNI TASHKIL
ETISH**

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

**QARSHI
«ILM-FAN-MA'NAVIYAT» NASHRIYOTI
2025**

UDK: 943.75(045)

A 20

Alikulova Muxayyo Sherovna

Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish.

O'quv-uslubiy qo'llanma

-Qarshi. «ILM-FAN-MA'NAVIYAT» nashriyoti, 2025. –134 bet.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma Pedagogika institutlarining Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun «Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish» fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida tayyorlandi. Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada fan dasturi asosida berilgan barcha amaliy mavzular to'liq mujassamlangan bo'lib, qo'shimcha ravishda talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun mavzular kesimida nazariy manbalar kiritilgan. O'quv-uslubiy qo'llanmadan "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalari, magistrarlari, o'qituvchilari va shu sohaga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

This teaching and methodological manual was prepared as a teaching and methodological manual for students of the Preschool Education Department of Pedagogical Institutes on the subject "Technology of Organization of Developmental Centers". This teaching and methodological manual fully incorporates all practical and seminar topics given on the basis of the subject program, and in addition, theoretical sources are included in the section of topics to consolidate students' knowledge. The teaching and methodological manual can be used by students, masters, teachers of the "Preschool Education" program, and those interested in this field.

Taqrizchilar:

M.P.Imomov –(PhD) dotsent.

N.H.Oripova –(DSc), professor

ISBN 978-9910-608-13-1

© M.Sh.Alikulova, 2025 yil.

© «ILM-FAN-MA'NAVIYAT» nashriyoti, 2025 yil.

KIRISH

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining mazmunini yangilash ta'lim- tarbiya jarayonining individuallashuvi, pedagogning bolalar bilan shaxsga yo'naltirilgan muloqotini ta'minlashni nazarda tutadi. Pedagogik improvizatsiya kundalik amaliyotda keng tarqalgan bo'lib, u pedagoglarga muayyan vaziyatda bola bilan muloqot qilish vaqtida mos keladigan usul, vosita va shakllarni tanlash imkonini beradi.

Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslash-tirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta'lim tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e'tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak. Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash pedagoglarga ta'lim- tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini yaratish ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muhim omili hisoblanadi.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olib, bu o'z navbatida har bir bolaning emotsional holatini yaxshilaydi, ularning ijobiy his- tuyg'ularini, dunyoga, odamlarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabat kompetensiyalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlikda bo'lish kabi maktabgacha ta'lim maqsadlari amalga oshiriladi.

Bugun O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyasi ularni ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu unga umri davomida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda

asosiy rolni o'ynaydi, shuning uchun ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab- quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma ana shu mummolarni o'rgangan holda bo'lajak tarbiyachi mutaxassislarga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etishda nazariy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110200-maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida ko'rsatilgan **«Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish»** fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini sifatli va samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida tayyorlangan.

1-MAVZU: DAVLAT O'QUV DASTURI IKKINCHI NASHRINING ASOSIY JIHATLARI VA MAZMUN-MOHİYATI

I. Topshiriq: “Akademik munozara” metodi.

Savol: Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun qanday omillar sabab bo'ldi?

“Akademik munozara” metodi – bu metod Oliy ta’lim tizimida qo’llanilishi mumkin bo’lgan va unda ta’lim oluvchilar tomonidan har doim ijobiy baholanadigan metodlardan biridir. Bu metoddan biror mavzu bo’yicha ta’lim oluvchilar bilan o’zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o’tkaziladigan o’qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo’llaniladi. “Akademik munozara” metodini tashkil etishda eng avvallo ta’lim oluvchilarni ta’lim beruvchi noodatiy tarzda teng ikkiga bo’lib olishi va uni boshqarib borishi yoki boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi mumkin. Bu metodni erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo’ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

“Akademik-munozara” metodini o’tkazishda quyidagi qoidalarga qat’iy amal qilish lozim:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o’ng qo’l” qoidasi (qo’lini ko’tarib, ruxsat olgandan so’ng so’zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g’oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g’oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o’zaro hurmat;
- **“Akademik-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan fikrlarni, ya'ni turli g'oyalarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun birorta Talabani masul etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

"Akademik-munozara" metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

"Akademik-munozara" metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilar orasida o'zaro tortishuvlarning paydo bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarning o'rtasidagi o'zaro hurmatning buzilishi.

II. Yangi mavzuning bayoni: Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassisleri va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan Davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va

qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug'ildi.

Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo'ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta'limda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- dasturning birinchi nashrini qo'llashda orttirilgan tajriba va uning tahlili;
- 2021-yilda respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari mutaxassislari, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o'rtasida o'tkazilgan manzilli milliy so'rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;
- maktabgacha ta'lim dasturlarini yaratish bo'yicha o'tgan yillar davomida to'plangan xalqaro tajriba.

Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar Davlat o'quv dasturining quyidagi jihatlarda o'z aksini topdi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari dasturning shaxsga yo'naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta'minlash zaruratini ta'kidlash uchun batafsil ochib berildi va umumlashtirildi;
- kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to'ldirildi;
- bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni "bolaning ovozi eshitish", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish

imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga; loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga; individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga; kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lim olishni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

- ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik yangilangan shaklda taklif etildi, bunda ota-onalar va pedagoglarning umumiy maqsadi bolaga ta'lim va tarbiya berishdir; pedagog, oila va mahalliy hamjamiyat o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yanada xilma-xil imkoniyatlar taklif etildi;
- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari bolalarning qiziqishlariga ko'ra, mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan rivojlantiruvchi muhit to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirildi;
- dasturning inklyuziv xususiyati MTTning alohida ehtiyojli har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda qo'shimcha yordam ko'rsatish majburiyatlari bilan mustahkamlandi;
- rivojlanish markazlarida tashkil etilgan bolalarning faoliyati loyiha mavzusi bilan to'ldirildi;
- namunaviy kun tartibida ta'lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt o'zgartirildi, bu esa o'z o'rnida bolalarning erkin o'yin faoliyati, bolalarning qiziqishlariga ko'ra mustaqil faoliyatiga, shuningdek, mavzuli loyiha faoliyatiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi;
- O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, xalqaro tajribani, shuningdek, boshlang'ich ta'lim bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida o'quv reja qisman o'zgartirildi;

- bola rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonini optimallashtirish uchun bolaning rivojlanish xaritalari qisman o'zgartirildi.

Ushbu Davlat o'quv dasturi - bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

III.Yangi mavzuni mustahkamlash savol va topshiriqlar:

1. Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun qanday omillar sabab bo'ldi?
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri qachon tasdiqlangan?
3. Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari nimada?

IV.Uyga vazifa berish.

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish?

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish?

Topshiriq 3. "Kichik guruhlarda ishlash" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri qachon tasdiqlangan?

- A. 2018 yil 18 iyun
- B. 2022yil 3 fevral
- C. 2019yil 8 dekabr
- D. 2019 yil 11 iyun

2. Davlat o'quv dasturi qaysi yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan?

- A. 3-4yoshdagilar uchun;
- B. 4-5yoshdagilar uchun
- C. 5-6yoshdagilar uchun
- D. Turli yoshdagi bolalar uchun.

3. Pedagog davlat o'quv dasturini amalga oshirishda quydagilardan qaysi biri orqali bolalarning individual rivojlanishini ta'minlaydi?

- A. Dasturga qat'iy rioya qilib ijodkorlikka yo'l qo'ymasdan
- B. Har bir bolaning faolligini nazorat ostida cheklab.
- C. O'zining kasbiy bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda muhit yaratish orqali
- D. Faoliyatlarni faqat nazariy asosda tashkil qilish orqali.

4. "Ilk qadam" qanday hujjat?

- A. Tayanch dasturi
- B. Davlat o'quv dasturi
- C. O'quv qo'llanma
- D. Variativ dastur.

5. Pedagog "Ilk qadam" dasturini amalga oshirishda birinchi navbatda nima qilishi kerak?

- A. O'quv dasturini chuqur o'rganishi
- B. Ko'proq nazorat qilishi
- C. Ota-onalar bilan ishlashi
- D. Nazariy yondashuv ega bo'lishi.

6. Takomillashtirilgan Ilk qadam dasturida ta'lim-tarbiya qaysi bobda keltirilgan?

- A. 3 bob
- B. 4 bob
- C. 6 bob
- D. 8 bob

7. "Ilk qadam" dasturining maqsadli bo'limi nimalarni o'z ichiga oladi?

- A. tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim
- B. Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim
- C. Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan

ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

D. Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlarini qamrab oladigan bo'lim.

8. "Ilk qadam" dasturining mazmunli bo'limi nimalarni o'z ichiga oladi?

A. bu Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

B. bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim;

C. bu Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;

D. Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlarini qamrab oladigan bo'lim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

2-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINING MAQSAD VA TAMOYILLARI

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga oid qanday ishlar amalga oshirilayotganligi haqida gapiring.

2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashri qachon tasdiqlangan?

3. Maktabgacha ta'limni qamrab oladigan rivojlanish sohalari tashqari odatda qanday asosiy mavzular taklif etish mumkin deb hisoblaysiz?

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish jarayoni bo'lib, ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.


“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan. Kichik guruhlarda ishlash metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar ba'holanadi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining tuzilmasi



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunining yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

- baʼzi kichik guruhlarda kuchsiz taʼlim oluvchilar boʻlganligi sababli kuchli taʼlim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha taʼlim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past boʻladi;
- guruhlararo oʻzaro salbiy raqobatlar paydo boʻlib qolishi mumkin;
- guruh ichida oʻzaro nizo paydo boʻlishi mumkin.

II. Yangi mavzuning bayoni: Tamoyil (prinsip, negiz, asos)-bu xatti-harakat yoki baʼholash uchun qoʻllaniladigan taklif yoki qiymat yigʻindisidir. Oʻrnatilgan qonunda prinsip amal qilinishi kerak boʻlgan yoki odatda bajarilishi kerak boʻlgan qoidalar jamlanmasi demakdir. Tamoyil biror bir maqsadga muvofiq boʻlishi mumkin, tabiatda kuzatilgan qonunlar yoki tizimni qurish usuli kabi biror narsaning muqarrar natijasi boʻlishi mumkin. Bunday tamoyillar foydalanuvchilar tomonidan muhim ekanligi isbotlanishi yoki moʻljallangan maqsadini aks ettiruvchi xarakterga ega boʻlishi kerakligi tushuniladi. Agar biron bir tamoyilga eʼtibor bermaslik kerak boʻlsa, ulardan samarali ishlashini yoki foydalanishni kutish kerak emas. Faoliyat prinsiplarida koʻrsatilganidek, aniq tamoyillar hujjatlarga asoslanishi va amalga oshirilishi kerak.

Taʼlim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar maktabgacha taʼlim tashkilotidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini toʻgʻri tashkil etishga bogʻliqdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotining pedagogik jarayonida taʼlim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, oʻyin, mehnat, mashgʻulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashgʻulotda taʼlim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq oʻstirish, savod oʻrgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa boʻyicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda koʻnikma tizimini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak boʻlgan bilim, malaka va koʻnikmalar maktabgacha taʼlim tashkiloti dasturida belgilab berilgan boʻlib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab taʼlimiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekinasta murakkablashtirib boriladi.

Tamoyillar O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

Pedagogika fanlari tizimida quyadagi tamomoyillardan eng ko'p foydalaniladi. Onglilik va faollik tamoyili, tizimlilik va izchilik, uzviylik, amaliyot bilan nazariyaning birligi tamoyili, oddiydan murakkabga qarab borish tamoyili, puxtalik tamoyili, osonlik tamoyili, tushunarliklik tamoyili va ko'rgazmalilik tamoyili va hokozolar;

Onglilik va faollik tamoyili – ma'lum bir guruh bilan tashkil etilayotgan turli xil mashg'ulotlarda guruh tarbiyalanuvchilarining bir xilda nazorat ostida bo'lishlarini ta'minlasa, faolligi bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan harakatga nisbatan yondashuvda ko'zga tashlanadi. Onglilik prinsipining asosini ilk bor P.F. Lesgaft ishlab chiqqan edi. U maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy harakatlarni mexanik o'rganishlariga mutlaqo qarshi edi. Lesgaft «Bolalarni har qanday ishga imitatsiyaga berilmasdan umumiy metodlar asosida bir so'zdan tushunib, ya'ni harakatlarda iloji boricha mustaqil bo'lishga va irodalilik namoyon qilishga o'rgatish zarur», – deb hisoblagan.

Tizimlilik va izchillik tamoyili – izchillik butun maktabgacha ta'lim va tarbiya davri davomidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonining uzluksizligi, muntazamliligi, rejaliligi, yuklama va dam olishning majburiy almashinib turishi asosida o'tkazilishi natijasida yuzaga keladi. Mashg'ulotlarning izchilligi, ketma-ketligi, mazmunan o'zaro aloqadorligi namoyon bo'ladi. Tizimlilik maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlashtirayotgan harakatlari haqidagi bilimlar, m-

alaka va ko'nikmalarning o'zaro aloqasi va bir-biriga bog'liqligida ifodalanadi.

Har hafta muayyan bir vaqtda ma'lum bir guruhdagi tarbiyalanuvchi bilan olib boriladigan bolalarning turli jismoniy mashqlarni har kuni tashkil etiladigan (ertalabki gimnastika, jismoniy daqiqalar, sayr paytidagi harakat faoliyati va h.k.) tizimli bajarish hamda chiniqtirish tadbirlari bolalarni belgilangan rejimiga odatlanishga o'rgatadi. Tizimli mashg'ulotlar to'xtatib qo'yilganda, ular o'rtasidagi tanaffuslar paytida erishilgan funksional imkoniyat darajasining pasayishi, ba'zan esa morfologik ko'rsatkichlarning yo'qolishi kuzatiladi. Bu jarayon quydagi salbiy holatlarda ko'rinadi ya'ni faol muskul to'qimasi o'zgaradi, solishtirma og'irlik kamayadi, strukturali komponentlarning yo'qolishi namoyon bo'ladi.

A.N. Krestovnikovning fikriga ko'ra «Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hosil qilinayotgan harakat ko'nikmalarining takrorlanishini talab etadi. Faqat ko'p marta takrorlangandagina jismoniy harakatning dinamik stereotiplari shakllanadi. Bunday mashqlarni samarali takrorlash uchun shunday tizim zarurki, unda o'zlashtirilgan harakat yangisi bilan bog'lanib ketshi kerak, boshqacha aytganda takrorlash jarayoni variativlik xarakteriga ega bo'ladi. Bundan tashqari bolalarda jismoniy mashqlarni takrorlash morfologik va funksional rivojlanishning uzoq muddatga qayta tiklanishini ta'minlaydi. Buning natijasida jismoniy sifatlar rivojlanadi».

I.P. Pavlovning fikriga ko'ra «Hosil qilingan dinamik stereotiplarga ko'ra yangi qo'zg'atuvchilarning kiritilishi asta-sekinlikka rioya qilingan sharoitda keskin o'zgarishlarsiz kechadi. Pedagogikada asta-sekinlik bilan mashq qildirishni asosiy fiziologik qoida, deb hisoblashni ta'kidlab o'tgan edi».

Mustaqillik tamoyili – bolaning jismoniy harakat faoliyatiga ongli va faol munosabatda bo'lishiga tayanishni ko'zda tutadi: Bu tamoyil u yoki bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun

nimani qanday bajarishga boshqacha emas, aynan shunday bajarish kerakligini aniq tasavvur qilinishini ifodalaydi.

Tushunarlilik va individuallilik tamoyili – bu tamoyil tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini, imkoniyatlarini hisobga olishni hamda uning kuchiga yarasha topshiriqlar berilishini ko'zda tutadi.

Individuallashtirish tamoyili – individuallashtirish tamoyili tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos funksional imkoniyatlarini hisobga oladigan alohida ta'sirlarni ko'zda tutadi, bu yoshdagi bolalarning harakatlarni o'zlashtirish darajasi turlicha kechishini ko'zda tutadi.

Talablarni asta-sekin oshirib borish tamoyili - bu tamoyilning asosiy sharti maktabgacha yoshdagi bola uchun unga birmuncha qiyin vazifalar berish va uni bajartirish hamda yuklama ko'lamini va faolligini asta-sekin oshirib borishdan iborat hisoblanadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan barcha tamoyillar o'z mazmuniga ko'ra o'zaro bog'langan va mushtarakdir. Ularning barchasi o'zida yagona va faqat shartli ravishda alohida holda qaraladigan bir jarayonning muayyan jihatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ko'rsatib o'tilgan barcha tamoyillar faqat o'zaro aloqadorlikdagina amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.** Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.
- **Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish.** Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega. Bolalar,

shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

- **Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash.** MT - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo'yicha **integratsiyani** ta'minlash zarurligini belgillaydi.
- **Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.** Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.
- **O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish.** O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.
- **Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.** Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning maktabgacha ta'lim tashkiloti ahamiyatini tushu-

nishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

- **Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish.** Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir.

Ushbu tamoyillar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining tamoyillari haqida gapirib bering?
3. Tamoyillar haqida nimalar bilib oldingiz?
4. Onglilik va faollik tamoyili haqida gapiring?
5. Ko'rgazmalilik tamoyilining ustunliklari haqida tushuntiring?
6. Individuallashtirish prinsipi haqida gapiring?

IV. Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish?

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish?

Topshiriq 3. "Davra suhbat" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining tamoyillaridan biri bu –

- A. Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar.
- B. O'zgarish va xilma-xillik.
- C. Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.
- D. O'quv muhiti xavfsiz bo'lishi kerak.

2. Ta'lim jarayonida integratsiya nimani anglatadi?

- A. Faqat bir fan asosida o'qitish.
- B. Bolalarni bir-biriga solishtirish.
- C. Faoliyatlarning uyg'unlashtirilishi.
- D. Faqat o'yinlardan foydalanish

3. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda nimalardan foydalaniladi?

- A. O'z bilimi, ko'nikma va resurslarda
- B. O'quv dasturdan
- C. Ish rejadan foydalaniladi
- D. Ko'nikmalardan.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni 1 sutkada uxlash davomiyligi necha soatni tashkil qiladi?

- A. 10,5-11soat
- B. 16-17 soat
- C. 9-10 soat
- D. 8-9 soat

5. Pedagog davlat o'quv dasturini amalga oshirishda quydagilardan qaysi biri orqali bolalarning individual rivojlanishini ta'minlaydi?

- A. Dasturga qat'iy rioya qilib ijodkorlikka yo'l qo'ymasdan
- B. Har bir bolaning faolligini nazorat ostida cheklab.

C. O'zining kasbiy bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda muhit yaratish orqali

D. Faoliyatlarni faqat nazariy asosda tashkil qilish orqali.

6. Bolalar o'zlari o'ylab topgan va ularda o'z ta'surotlarini, borliq haqidagi tushunchalarni munosabatlarini aks ettiradigan o'yin turi qaysi?

A. ijodiy o'yinlar;

B. qoidali o'yin;

C. didaktik o'yinlar;

D. ko'ngil ochar o'yinlar.

7. Ta'lim dasturining asosiy maqsadi nima?

A. Faqat bilim berish

B. Bolalarni maktabga tayyorlash

C. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash.

D. Tarbiyalanuvchilarni baholash.

8. Davlat MTTlarida to'liq kunlik guruhlariga necha soat davomiyligi belgilangan?

A. 9 soat 10,5 soat, 12 soat;

B. 4 soat, 5 soat;

C. 8 soat, 9 soat, 10 soat;

D. 3 soat, 4 soat;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

3-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining tamoyillari haqida gapirib bering?
3. Tamoyillar haqida nimalar bilib oldingiz?
4. Onglilik va faollik tamoyili haqida gapiring?
5. Ko'rgazmalilik tamoyilining ustunliklari haqida tushuntiring?
6. Individuallashtirish prinsipi haqida gapiring?

"T – sxema" metodi

"T – sxema" metodi – bu metod ta'lim jarayonida keng qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib bu metodning boshqa metodlardan farqli tomoni shundaki bunda talabalar mustaqil ishlaydi.

O'qituvchi tomonidan quydagilar amalga oshiriladi:

- topshiriqni batafsil tushuntiradi ya'ni talabalarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;
- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach o'quvchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Tinglovchi tomonidan esa quydagilar amalga oshiriladi:

- mavzuni diqqat bilan tinglaydi;
- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tuchunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, dasturning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

"T" sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.

+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)

II. Yangi mavzuning bayoni:

Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.


Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyat-lari majmuidir. Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadri-yatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Har bir faoliyatni samarali hayotga samarali tadbqiq qilish uchun muhim hisoblanadigan tushunchadir.

Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o'quv dasturida kompetensiyalarning quyidagi turlari keltirib o'tilgan.

- Kommunikativ.
- Ijtimoiy.

- Shaxsiy ("Men" kontsepsiyasini qurish).
- Bilish.



Maktabgacha yoshdagikompetensiya turlarini rivojlantirish uchun eng avvalo kommunikativ kompetensiyadan boshlash muhim hisoblanadi. Davlat o'quv dasturida kommunikativ kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan.

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir.

Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko'proq o'zlarini guruhning bir qismi sifatida ko'radilar va o'z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan

uyg'unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlay oladilar.

Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

Bolalar hayotdagi o'z o'rnini biladilar, o'zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bola mustaqil va u o'ziga ishonadi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. Bola o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi. Bola qanday tanlashni biladi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi. O'z harakatlari uchun tashabbus va mas'uliyatni namoyon qiladi. O'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi. O'sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. O'z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o'zini boshqara oladi; sog'lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik tartib qoidalarga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

Bilish kompetensiyasi — atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning bilish (kognitiv) kompetensiyasi - bu ularga dunyoni tushunish, ma'lumotlarni qayta ishlash, diqqatni jamlash va muammolarni hal qilish imkonini beruvchi intellektual ko'nikmalar to'plamidir. U xotira, diqqat, nutq, fikrlash, idrok va bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalarni o'yin, ijodiy

faoliyat va faol mashg'ulotlar orqali, shuningdek, kundalik tartib, to'g'ri ovqatlanish va boy hissiy tajribalar orqali rivojlantirish mumkin.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o'qish va o'rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o'rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi ob'yektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

- shaxsiy gigiyena malakalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

“Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

“Ijodiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san‘at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kompetensiya nima?
2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalariga nimalar kiradi?
3. Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat o‘quv dasturida qanday tayanch kompetensiyalarni bilasiz?
4. Maktabgacha ta’limda bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish qanday ahamiyatga ega?

IV. Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o‘qib o‘rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish?

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish?

Topshiriq 3. "SWOT-tahlil" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari ko'rsatilgan qatorni aniqlang?

- A. jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi; jtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.
- B. mayda matorikani rivojlantirish, jtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.
- C. jismoniy rivojlanish; jtimoiy-hissiy rivojlanish, bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.
- D. jtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi;

2. Ijtimoiy kompetensiya bu?

- A. muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.
- B. hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.
- C. bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quvtarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.
- D. atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

3. Kommunikativ kompetensiya bu?

- A. bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quvtarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

- B. hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.
- C. atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.
- D. muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi

4. Pedagogik jarayonda bolaning mustaqil harakat qilishini rag'batlantirish qanday natijani beradi?

- A. Bolaning faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.
- B. Faoliyatni boshqarishni murakkablashtiradi.
- C. Bolaning o'z kuchiga ishonchi va ijodkorligini rivojlantiradi.
- D. Dars rejasining bajarilishini sekinlashtiradi.

5. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasidagi kichik sohalardan qaysi biri noto'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yirik motorika
- B. Sensomotorika
- C. Matematik malakalar
- D. Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik

6. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining kichik sohasini toping?

- A. Yirik motorika
- B. Mayda motorika
- C. Nutq va til
- D. Sensomotorika.

7. Dunyoni badiiy tasavvur etish qaysi rivojlanish sohasi tarkibiga kiradi?

- A. Bilish jarayonining rivojlanishi sohasiga
- B. Ijodiy rivojlanish sohasiga
- C. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakasi sohasiga
- D. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasiga.

8. Men konsepsiyasi qaysi rivojlanish sohasiga tegishli?

- A. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi
- B. Bilish jarayonini rivojlanishi sohasi
- C. Ijodiy rivojlanish sohasi
- D. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
- 6. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
- 7. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
- 8. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

4-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA O'YINNING AHAMIYATI.

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Davlat talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish sohalarini nimalardan iborat.
2. Rivojlanish sohalarini kichik sohalariga nimalar kiradi?
3. Davlat o'quv dasturida asosida qanday tayanch kompetensiyalar belgilangan?
4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv va tarbiyaviy faoliyatni o'quv yillari qanday tashkil qilinadi?
5. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanish sohasi kompetensiyasiga qanday kichik sohalar kiradi?

“SWOT-tahlil” metodi

“SWOT-tahlil” metod-mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil va tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan metodlardan biridir.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlari

Bu metotdan foydalanish haqida 1963-yilda Garvard universitetining professori Andryus tomonidan biznes siyosati muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada birinchi marta taklif etilgan.

Dastlab bu metod mavjud vaziyat haqidagi bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llangan. U o'rganilayotgan ob'ekt, vaziyat yoki jarayonning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ob'ektni o'rab turgan tashqi muhit bilan bog'liq xavf xatarlarni aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu metodni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarda tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

“SWOT-tahlil” metodni qo'llashga qo'yiladigan talablar - SWOT –universal tahlil metodini ta'lim jarayonida qo'llash uchun ta'lim beruvchilar ham, ta'lim oluvchilar ham ma'lum bir tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi, ya'ni bu metodning maqsadi, qo'llanilish holatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda o'rganilayotgan ob'ekt yoki masalaga taalluqli bo'lgan ichki va tashqi faktorlarni ajratish, ijobiy va salbiy omillarni ajrata olish malakalari shakllangan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, tahlilini o'tkazish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish ham muhim sanaladi.

II.Yangi mavzuning bayoni:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda o'yin orqali kompetensiyalarini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, o'yin faoliyati oddiy harakatlaridan tortib, psixik jarayonlari elementlaridan eng murakkabigacha ta'sir ko'rsatadi. O'yin kompetensiyasini rivojlantirish orqali erta bolalik davrida kattalar bolani atrofdagi haqiqat bilan tanishtirishadi, o'zaro aloqa jarayonida unga harakatlar, narsalar va odamlar bilan munosabatlar to'g'risida ma'lum tajriba va bilimlar berishadi. 4

O'yin maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u bolalar uchun o'rganish va rivojlanishning asosiy vositasi bo'lib, ularning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. O'yin orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur, ijodkorlik, ijtimoiy ko'nikmalarni (o'zaro ta'sir, hamdardlik, nizolarni hal qilish)

rivojlantiradilar, bilim oladilar, axloqiy qadriyatlarni rivojlantiradilar va maktabga tayyorgarlik ko'radilar.

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir.

O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi. O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi.

O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari muhimdir. ***Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'rni quyidagilar bilan ifodalanadi:***

- **bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).** Pedagog o'yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag'batlantiruvchi o'yin resurslari bilan ta'minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o'yin uchun imkoniyatlar yaratadi;
- **bolalar o'yinini rivojlantirish.** Pedagog bolalarga o'yin orqali o'rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o'yin holatiga kirishga va/yoki o'ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o'yinni rejalashtiradi;
- **bolalarning o'yinda o'zaro munosabatda bo'lishiga yordam berish.** Bolalarni o'yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'yin orqali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o'yinga qo'shilib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi;
- **bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish.** Pedagog rejalashtirishda bolaning o'z g'oyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan o'ynash uchun yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rqmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'yin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuvisiz o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

O'yin texnologiyasidan foydalanib, tarbiyachilar quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi;

- O'yinning yosh xususiyatlari, o'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlarni shakllantirish, kuzatish, tahlil va tatbiq etish haqida bilimga;
- Ta'lim-tarbiya jarayonini o'yin orqali rivojlanish markazlarida tashkil etish. Umumiy guruhlarda ta'lim jarayonni rejalashtirish tartibi, guruhlarda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shuningdek, o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi:

o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;

o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir.

Shunday qilib maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida o'yinning o'rnini juda katta hisoblanib, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda o'yindan keng foydalaniladi.

III.Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida o'yinning ahamiyati nimada?
2. Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'rnini qanday?
3. O'yin faoliyatida bolaning ruhiyati nimalar namoyon bo'ladi?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari:

1. O'yin faoliyatining bolaning rivojlanishiga ta'siri haqida fikrni toping?

- A. O'yin faqat bo'sh vaqtni o'tkazish uchun xizmat qiladi.
- B. O'yin orqali bola kognitiv va ijtimoiy jihatdan rivojlanadi.
- C. O'yin bola uchun shinchaki ko'ngil ochar faoliyatdir.
- D. O'yin faqat kichik yoshdagi bolalar uchun muhim.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rolli o'yinlar nimani rivojlantiradi?

- A. Qo'l harakatlarini.
- B. Emotsional dunyosini va tasavvurini.
- C. Mustaqil faoliyatini.
- D. Mexanik faoliyat

3. Pedagog bolalar o'yini uchun qanday sharoit yaratadi?

- A. Faqat tashqi muhitni tayyorlaydi.
- B. Faqat ichki muhitni tayyorlaydi.
- C. O'yin uchun vaqt, joy, resurslar yaratadi.
- D. O'yinlarni o'rgatadi.

4. Pedagog o'yinni qanday rejalashtiradi?

- A. Faqat o'z xohishiga ko'ra.
- B. Bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga asoslanib.
- C. Davlat dasturiga ko'ra.
- D. Faqat nazariyaga asoslanib.

5. "O'yin - bu harakatdagi tasavvur, ijodiy jarayon o'yinda rivojlanadi, haqiqiy sharoitlar yangi g'ayrioddiy ma'noga ega"bu sòzlar qaysi olimning fikri tegishli?

- A. A.S.Makarenko.
- B. A.S.Vigotskiy,
- C. A.N.Leontev.
- D. D.B.Elkonin.

6. Bolalar o'zlari o'ylab topgan va ularda o'z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarni munosabatlarini aks ettiradigan o'yin turi qaysi?

- A. qoidali o'yin;
- B. didaktik o'yinlar;
- C. ko'ngil ochar o'yinlar.

D. ijodiy o'yinlar

7. Xona ichida va tashqarisida o'yin uchun imkoniyat yaratishda pedagog nimalarga amal qiladi?

A. O'z bilimiga

B. Xavfsizlik talablariga

C. Faqat maktab rahbariyatiga

D. O'yin o'tkazish qoidalariga.

8. Ijtimoiy rolli o'yinlar orqali bolalarda nima shakllanadi?

A. Tez yugurish.

B. O'zini tutish va muloqot ko'nikmalari

C. Yozuv malakasi.

D. Tabiiy fanlarga qiziqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

5-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Bolalar o'zlari o'ylab topgan va ularda o'z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarni munosabatlarini aks ettiradigan o'yin turi qaysi?
2. O'yin texnologiyasidan foydalanishda, tarbiyachi qanday ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak ?
3. Xona ichida va tashqarisida o'yin uchun imkoniyat yaratishda pedagog nimalarga amal qiladi?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rolli o'yinlar nimani rivojlantiradi?
5. O'yin faoliyatining bolaning rivojlanishiga ta'siri haqida fikirni toping?

«NILUFAR GULI» metodi – o'zlashtirilgan mavzu mustahkamlab olish uchun mo'ljallangan qiziqarli va yuqori emotsiyaga mos bo'lgan metodlardan biridir. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etadi va uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan qatnashadi. Asosan bu metod orqali ta'lim oluvchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosiga 9 ta katta kvadrat hosil qiling va, ularning har biriga o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratlarni yarating;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning ichiga yozing. Uni hal etish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha qilib aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana o'zidan keying gul barglarni hosil qiladi.

“NILUFAR GULI” metodi orqali ta'lim oluvchilar savolning asosi qayerda savolning yechimi va uning natejalar haqida mazmunan fikr yuritish va uning mohiyatiga to'g'ri yondasha olish qobiliyatlariga ega bo'lib boradi.

II. Yangi mavzuning bayoni:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitini tashkil qilish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan, shuningdek, ularning xavfsizligi va hissiy farovonligini ta'minlaydigan mazmunga boy, o'zgaruvchan va moslashuvchan makon yaratishni o'z ichiga oladi. Asosiy tamoyillar funktsional zonalarini yaratish, materiallarga kirish imkoniyatini yaratish, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish va o'yin, ijodkorlik, kognitiv va jismoniy faollik kabi turli xil mashg'ulotlar uchun turli xil materiallardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini,

shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mazmunan boy – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- o'zgartuvchan – ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- polifunksional – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- muqobil – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar, o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o'yin materialining muntazam ravishda o'zgartirilishi, bolalarning o'yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo'lishi;
- hammabop – tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar, qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligi;
- xavfsiz – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;
- oqilona – davlat o'quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining turli ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish; inklyuziv ta'lim tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

- mahalliy sharoitga moslashtirilgan – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiatga, iqlimga bog'liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishi;
- shaxsga yo'naltirilgan – pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o'yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).

Rivojlantiruvchi o'qitish muhiti – bu faollikning har-xil turlari bilan to'ldirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirish bo'lib, u funksionallik, bolalar uchun qo'llanmalar va materiallarning ommabopligi, ko'p bo'g'inlilik (turlicha rivojlanish darajasiga ega bolalarning o'z-o'zini yuzaga chiqarishlarini ta'minlaydi) va ko'p funksionallilik (bolalarning har xil faoliyat turlariga jalb etilishini ta'minlaydi) bilan ajralib turadigan rivojlantiruvchi muhitning ratsional tashkil etilishini talab qiladi. Bu ayniqsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli mustaqil faoliyati uchun o'ta muhimdir.

Guruh xonasida bolalarning o'z qiziqishlari bo'yicha erkin mustaqil faoliyat uchun maydoncha ajratiladi. Bu syujetli o'yin, tajriba va sinovlarni o'tkazish, stol ustidagi va didaktik o'yinlar, konstruksiyalarni yasash, qo'l mehnati va badiiy faoliyat uchun ajratilgan past stellajlar, shkafchalar, shuningdek, kitoblar va albomlarni bemalol tomosha qilish, o'qish mumkin bo'ladigan kitoblar burchagi bo'lishi mumkin.

Guruh xonasining jihozlanishi o'z ichiga bolalarning ko'z bilan yaxshi ko'ra oladigan, yaqin kelib, ko'rib chiqish mumkin bo'ladigan balandlikda osilgan yarim sharlar xaritasini, O'zbekiston xaritasini, globuslarni, harakatlanadigan ikki tomonlama yozuv taxtasini olishi lozim bo'lib, ulardan rasm chizish, yozish uchun mashg'ulotlarda hamda sxemalarni, illyustrativ materiallarni va shu kabilarni namoyish qilish uchun stend sifatida foydalanish mumkin. Yozuv taxtasidan barcha bolalar har doim foydalana oladigan bo'lishi kerak.

Guruhlar xonalaridagi stendlarda va foyeda bolalarning ishlari ekspozitsiyalarini, shuningdek, ular mashg'ulotlarda katta yoshlilar bilan birgalikda tayyorlagan jadvallar, pannolar va shu kabilarni joylashtirish imkoniyatini ko'zda tutmoq kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududidagi guruhlardagi holat shunday yaratiladiki, bunga ko'ra u bolaning tanlovni mustaqil amalga oshirishi imkonini berishi lozim. Har bir guruhning xonasi bi necha markazlarga ajratilishi mumkin bo'lib, ularning har birida o'rganish va o'ynash, tajriba va sinov o'tkazish, boshqa bolalar va kattalar bilan o'zaro harakat qilish uchun etarlicha miqdordagi materiallar mavjud bo'ladi. Har xil guruhlarda markazlardagi to'plamlar bolalarning yoshi, qiziqishlari, ehtiyojlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi, vaqt o'tishi bilan ular almashtirilishi, bir markaz boshqasiga transformatsiyalanishi mumkindir. Masalan, syujetli-rolli markazi bir vaqtning o'zida tasviriy faoliyat markazi bo'lishi, boshqa vaqtda esa kitoblarni tomosha qilish va o'qish markazi bo'lishi mumkin. Lekin kitoblarni toza havoda ham o'qish mumkin, shuning uchun maktabgacha ta'lim markazi hududini ham rivojlantiruvchi muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida olib qarash kerak bo'ladi. Maktabga tayyorlash bo'yicha guruhlarda 5 tadan kam bo'lmagan turli xil faoliyat markazlarini ko'zda tutish tavsiya qilinadi.

Mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarini ham yoddan chiqarmaslik lozim, shuning uchun pedagog bolalar bilan muzey, park, fermaga, tomorqaga sayohatlarni tashkil etishi, mehmonga chaqirishni rejalashtirishi lozim bo'ladi.

Dastur rivojlantiruvchi muhit deganda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti xonalarini, balki unga yondosh hududlarning, shuningdek, mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarining ham tushunilishini taklif qiladi.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Rivojlantiruvchi o'qitish muhiti ahamiyatini izohlang?
2. Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
3. Guruhlarida rivojlantiruvchi yondashuvni yaratish nima?

4. Bolalarni bir yillik tayyorlov guruh xonasi qanday jihozlanishi kerak?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. «Klaster» metodi interfaol metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Rivojlantiruvchi muhit mazmunidagi "shaxga yo'naltirilgan" talabiga nimalar kiradi?

- A. rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- B. davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- C. pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak;
- D. barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;

2. Rivojlantiruvchi muhit qanday bo'lishi kerak?

- A. Rang-barang, xavfsiz va bolalarning yoshiga mos;
- B. Oddiy va sodda;
- C. Faqat didaktik materiallar bilan;
- D. Faqat kitoblar bilan.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga kim mas'uldir?

- A. maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
- B. maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari
- C. maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

D. maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

4. Markazlardagi bolalarning faoliyati bu-?

A. faoliyat, muhit, tovushlar va voqelik;

B. mustaqil nutq, kichik tadqiqot, o'yin, mehnat, musiqiy, badiiy faoliyat;

C. munozara, video, kuzatish, tahlil qilish;

D. atrof-olamni idrok etish.

5. Kimning nazariyasi bo'yicha bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo'lishni tavsiya etadi?

A. Plexanov.

B. M.Montessori.

C. Ya.Komenskiy

D. Jan Piaje.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlantiruvchi markaz faoliyatlarida asosan bolalarga nimalar o'rgatib boriladi?

A. Bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini o'rgatib boriladi.

B. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratishadi.

C. Bolalarning faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'ul bo'lishga o'rgatish.

D. Muammolarni yecha olish, ijodkorlik, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, atrof-olam haqidagi g'amxo'rlik qilish kabilar o'rgatib boriladi.

7. Rivojlantiruvchi muhit mazmunidagi "o'zgartuvchan" talabiga nimalar kiradi?

A. davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va

xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;

B. rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;

- C. pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak;
- D. ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi.

8. Ta'lim dasturining asosiy maqsadi nima?

- A. Faqat bilim berish;
- B. Bolalarni maktabga tayyorlash;
- C. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash;
- D. Tarbiyachilarni baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

6-MAVZU: RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING MAZMUNI, 5TA RIVOJLANISH MARKAZLARINI TASHKIL ETISH

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Rivojlantiruvchi muhit mazmunidagi "shaxga yo'naltirilgan" talabiga nimalar kiradi?
2. Davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi muhitga quyiladigan talablarga nimalar keradi?
3. Guruhlarda rivojlantiruvchi muhitni yaratishda bolalarning qanday maqsadini hisobga olgan holda tanlanadi ?

«Klaster» metodi

«Klaster» metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

«Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Klaster inglizcha so'z bo'lib (kluster) – bir butun holatda ma'lum mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo'lsa talabalar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni

doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi.

II. Yangi mavzuning bayoni:

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Maqsad: bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish.

Vazifalar:

- Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash;
- fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;
- rivojlanish faoliyati;
- Nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;
- tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish;
- vizual - majoziy idrokni rivojlantirish;
- xotirani, nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;
- kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;
- bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollari kengaytirish;
- barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalari bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan

to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi: har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallari.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatizatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atributlari.

Til va nutq markazi: didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiolgiya bo'yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'yin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.

San'at markazi: tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunarmandchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urfodat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etishdan maqsad nim?

2. Davlat o'quv dasturini amalga oshirishda pedagog qanday bo'lishi kerak?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish qanday hujjatlar asosan amalga oshiriladi?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Klaster" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish qanday hujjatlar orqali amalga oshiriladi?

- A. Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori.
- B. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonun.
- C. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
- D. Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

2. Rivojlanish markazlarining asosiy maqsadi nima?

- A. bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish
- B. bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shish
- C. bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish
- D. bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam berish.

3. Bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularga qanday yordam beradi?

- A. o'zgalar yutug'iga quvonganligini namoyon etadi;
- B. o'yinlar o'ylab topadi, syujetli rolli o'yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etadi.
- C. Bolaning turli ehtiyojlarini va harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.
- D. maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlarga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

4. Davlat o'quv dasturi asosida tashkil etiladigan faollik markazlari bolalarda . . . tarkib toptiradi.

- A. Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.
- B. Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash.
- C. O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish.
- D. odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

5. Rivojlanish markazlari ketma -ketligi to'g'ri berilgan javobni belgilang?

- A. Syujetli-rolli o'yinlar, qurish, konstruksiyalash va matematika, fan va tabiat, til va nutq, san'at.
- B. Qurish, konstruksiyalash va matematika, til va nutq, fan va tabiat, syujetli-rolli o'yinlar, san'at.
- C. Qurish, konstruksiyalash va matematika, syujetli-rolli o'yinlar, til va nutq, fan va tabiat, til va nutq, san'at.
- D. Qurish, konstruksiyalash va matematika, fan va tabiat, syujetli-rolli o'yinlar, til va nutq, san'at.

6. Markazlarda pedagogning vazifasi –

- A. Har bir bola o'ziga qiziq kitoblarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi va kitobni ko'rish uni tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishga undashdan iborat.

- B. bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan hamda ularni kuzatishdan iborat
- C. bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish.
- D. mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

7. Davlat o'quv dasturi asosida tashkil etiladigan faollik markazlari bolalarda qanday holatlarni yuzaga chiqaradi?

- A. Diniy dunyoviy falsafiy fikrlash;
- B. Tanqidiy ijodiy tafakkur fikrlash o'yin faoliyati;
- C. Kreativ yondashuvlar;
- D. Jismoniy holatlar.

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga kim mas'uldir?

- A. maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi;
- B. maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari;
- C. maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi;
- D. maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

7-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNI ROLI

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etishdan maqsad nima?
2. MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etishda pedagogning vazifasi nimalardan iborat?
3. Guruhlarda burchak uchun materiallar bolalarning qanday maqsadini hisobga olgan holda tanlanadi izohlang?

«Klaster» metodi

«Klaster» metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

«Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Klaster inglizcha so'z bo'lib (kluster) – bir butun holatda ma'lum mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo'lsa talabalar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni

doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin. Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi.

II. Yangi mavzuning bayoni:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, bo'layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning ijodiy qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, bolada mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari va bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi

jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

“Qurish-yasash, konstrukstiyalash va matematika” markazi – Markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug'ullanish imkoniga ega. Bolalar orasidagi suhbatlar tinglansa, ularning muloqotida “Menga katta g'ishtni ber”, “Menga qizil kerak”, “O'ng tomoningdagi meniki”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa katta”, “men yasagan mashinaning rangi oq”, “Mana senga ko'k lego”, “Mening mashinamga 10 ta odam sig'adi”, “Nima uchun buzilib ketdi?, chunki sen tagiga ko'p g'isht qo'ymading, tagi kichkina bo'lib qoldi” va boshqa jummalarni eshitasiz. Demak bolalar muloqotida ayirish, qo'shish, kattalikni bilish, taqqoslash kabi matematik iboralar ishlatiladi va ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi. O'z ishlarini taxlil qilishni o'rganadi.

“Syujetli-rolli o'yinlar va drammalashtirish” markazi – Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo'lishiga, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. O'yinlarda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni mavjud.

“Til va nutq” markazi – Markazda bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko'pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruxlarda ishlash jarayonida yo'qola boshlaydi. AKT vositalari, turli xildagi mavzuli rasmlar orqali bola mustaqil ravishda o'ylashi, fikrlashi, mazmunni idrok etish imkoniga ega. Markazga qo'yilgan mazmunli rasmlar orqali majburiy emas, balki o'z xolicha hikoyalar tuzish imkoniga ega. Mavzularni tanlash xuquqiga ega.

“Ilm-fan va tabiat” markazi – Tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi xodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat va bu markazni to'g'ri ishlatilsa bolalar tabiat haqidagi 90% bilimni shu erda olishi mumkin. Markaz na faqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Markazda olib borilayotgan turli tajribalar orqali bolalar jismlarning foydali va zarar tomonlarini bilib olish imkoniga ega. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qaerdan kelganligi, ularni nimadan olinganligi haqidagi bilimlarni olish orqali ularga bo'lgan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgaradi. Masalan nonni dasturxonimizga kelishi, paxtaning chigitini ezish orqali undan yog' chiqishini bilish, tarvuzning urug'ida yog'ning yo'qligini, piyozning ildizi bilan stakandagi suvga solib qo'yilsa uni o'sishi, urug'larni tuvaklarga sepish orqali ularni unib chiqishini ko'rish bolalar uchun juda qiziqarli.

“San'at” markazi – San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni mavjud. Bolaning ijodiy kobiliyatlarini kullab kuvatlanadi. San'atning rassomlik, xaykaltaroshlik turlariga hamma uchun ham iqtidor berilmagan. Shuning uchun bu markazga kamroq bola qatnashi mumkin. Lekin markazga kerakli jihozlarni to'liq qo'yilsa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlash orqali bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni amalga oshirishda pedagogni vazifalari qanday bo'lishi kerak?
2. Rivojlantiruvchi markaz mazmuniga qanday talablar quyiladi?
3. Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida markazlar qanday ahamiyatga ega?

4. Sizningcha, qaysi rivojlantiruvchi markaz bolalarda ijodkorlikni eng samarali rivojlantiradi? Nima uchun?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Davra suhbat" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Pedagogik jarayonda bolaning mustaqil harakat qilishini rag'batlantirish qanday natijani beradi?

- A. Bolaning faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.
- B. Faoliyatni boshqarishni murakkablashtiradi.
- C. Bolaning o'z kuchiga ishonchi va ijodkorligini rivojlantiradi.
- D. Dars rejasining bajarilishini sekinlashtiradi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida davlat talablari qanday mazmunlarni qamrab oladi?

- A. Faqat jismoniy faoliyatga asoslangan rivojlanish.
- B. Matematik va san'at sohasidagi malakalarni rivojlantirish.
- C. Bolaning har tomonlama individual rivojlanishi.
- D. Tabiatni o'rganish va texnik ko'nikmalarni shakllantirish.

3. Ijodiy qobiliyatlar, sensomotorika, mayda qo'l motorikasi, tasviriy faoliyat, san'atning turlari qaysi markaz orqali rivojlanadi?

- A. Til va nutq.
- B. Fan va tabiat.
- C. San'at.
- D. Qurish yasash va elementar matematika.

4. Qanday holatda faoliyat turi o'zgartirilishi mumkin?

- A. Ob-havo noqulay bo'lsa.
- B. Tarbiyachi tayyor bo'lmasa.
- C. Bolalar ishtirok etishni istamasa.

D. Mahalla kengashi talab qilsa.

5. Ijodiy qobiliyatlar, sensomotorika, mayda qo'l motorikasi, tasviriy faoliyat, sanatning turlari qaysi markaz orqali rivojlanadi?

A. Til va nutq.

B. Fan va tabiat.

C. San'at.

D. Qurish yasash va elementar matematika.

6. Qaysi guruh bolalari allaqachon atrofdagi dunyo haqida yetarli bilimga ega?

A. katta va tayyorlov;

B. o'rta va tayyorlov;

C. kichik va o'rta;

D. katta va o'rta

7. Bolalarga o'z qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyati qanday yaratiladi?

A. Ular qat'iy jadval asosida o'ynaydi;

B. Erkin o'ynash va o'z tashabbusini ifoda etish orqali;

C. O'yin faqat belgilangan vaqtda bo'ladi;

D. Ular faqat o'qituvchining ko'rsatmasiga amal qiladi.

8. Rivojlantiruvchi markazga xos belgilardan biri bu –

A. Faoliyatning qat'iy tanlovi;

B. Bolaning qo'llab-quvvatlanishi va tashabbusi qo'llab-quvvatlanadi;

C. Faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladi;

D. Nazorat asosida erkin tanlov

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019

3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to’g’risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

8-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAVLAT O'QUV DASTURINI AMALGA OSHIRISHDA RESURS VA TA'MINOTIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda markazlarning ahamiyati nimada?
2. Pedagogik jarayonda bolaning mustaqil harakat qilishini rag'batlantirish qanday natijani beradi?
3. Ijodiy qobiliyatlar, sensomotorika, mayda qo'l motorikasi, tasviriyl faoliyat, sanatning turlari qaysi markaz orqali rivojlanadi?

“Davra suhbatl” metodi

Bu metod aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. “Davra suhbatl” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatl mrtodining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir.


Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z

javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo’yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo’ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig’ib olinib, tahlil qilinadi.

Quyida “Davra suhbatlari” metodining tuzilmasi keltirilgan:

Davra stoli metodining tuzilmasi



“Davra suhbatlari” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg’ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg’ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo’lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo’yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o’z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo’yicha o’z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari" dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari" ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

V.Yangi mavzuning bayoni: "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, Lev Vigotskiy nazariyalari bo'yicha bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo'lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o'yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi. Guruh xonasini rivojlanish markazlari deb ataladigan kichik-kichik joylarga ajratish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglariga jadvalda guruhdagi rivojlanish markazlarining minimal soni ko'rsatilganligini tushunishlari tavsiya etiladi; hududning va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhdagi boshqa rivojlanish markazlari tashkil etilishi mumkin.

Turli guruhlarda markazlar to'plami har xil bo'lishi mumkin, ammo davlat o'quv dasturi guruhdagi beshta asosiy rivojlanish markazlarini tavsiya qiladi: fan va tabiat; til va nutq; syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish; san'at; qurish, konstruksiyalash va matematika. Guruhda boshqa rivojlanish markazlarini ham tashkil etish mumkin, ularni tashkil etish bolalarning manfaatlariga, guruhning bo'sh makoniga va maktabgacha ta'lim tashkilotiining moddiy-texnik imkoniyatlariga bog'liq. Bunday markazlar vaqtinchalik yoki faqat bolalar faoliyatining maxsus turlari (qum va suv markazi; pazandachilik markazi; musiqa markazi) uchun tashkil etilishi mumkin. Ta'lim muhitini yaratishda pedagoglar bolalar faol bo'lishi mumkin bo'lgan joylar mavjudligini ta'minlashi kerak.

Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar. Bolalar jismoniy faollik orqali yanada samaraliroq o'rganadilar va kun

davomida yuqori darajadagi jismoniy faollik, turfa xillik va stimurning o'zgarishiga ehtiyoj sezadilar.

Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyat. Yosh bolalar suvda o'ynash, loydan pirog yasash, yog'ochdan narsalar yasash, qo'g'irchoqlarni yotqizish va hokazo kabi amaliy mashg'ulotlarga muhtoj. Shuningdek, ularga syujetli-rolli o'yin, rasm chizish, rasmga olish, tildan foydalanish va qurilish bloklari kabi yangi tajribalarni mavjud aqliy tuzilmalarga integratsiya qilish va amalda qo'llash uchun turli usullar kerak.

O'zgarish va xilma-xillik. Bolalar doimo o'zlari qiziqqan narsalarni izlaydilar: manzara, tekstura, ranglar, ijtimoiy guruhlar, faoliyat, muhit, tovushlar va hidlar. Bolalar ta'lim jarayonida / maktabgacha ta'lim tashkilotida qancha ko'p vaqt sarflasa, ularga ko'proq xilma-xillik va rag'batlantirish kerak bo'ladi.

O'quv muhiti xavfsiz bo'lishi kerak. Bolalar xavfsizligi pedagogning asosiy mas'uliyati bo'lib, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va nazorat qilishni talab qiladi. Guruh xonasining maydoni qanday rejalashtirilganligi, rivojlanish markazlari qanday joylashganligi pedagogning bolalar salomatligi va xavfsizligini qanday ta'minlashi va ularning ta'limini yaxshilashiga ta'sir qiladi. Pedagog barcha bolalarni uyda ham, tashqarida ham ko'rishi va xona jihozlarining "ko'rinmas joylar" yaratadigan tarzda joylashtirilmasligini ta'minlashi kerak. Davlat o'quv dasturini amalga oshirish SanPiNda mustahkamlangan xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta'lim asosida yotadi.

III.Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlari nima asosida tashkil etiladi?

3. Guruhlarda rivojlanish markazlarining joylashuviga qanday talablar qo'yiladi?

IV. Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish?

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish?

Topshiriq 3. "Muammoli vaziyat" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Burchaklarni tashkil etishda xavfsizlikning asosiy tamoyili nima?

- A. Rang - baranglikni ta'minlash.
- B. Juda ko'p o'yinchoqlar qo'yish.
- C. Yoshga mos va xavfsiz vositalar tanlash.
- D. Faqat yangi vositalardan foydalanish.?

2. Davlat o'quv dasturi asosida tashkil etiladigan faollik markazlari bolalarda qanday fazilatlarni tarkib toptiradi?

- A. O'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish
- B. Tanqidiy fikrlash, muammolarni hal eta olish
- C. A va B javoblar to'g'ri
- D. To'g'ri javoblar yo'q

3. Davlat o'quv dasturida rivojlanish markazlari berilgan javobni belgilang?

- A. Qurish konstruksiyalash va matematika
- B. Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish
- C. Til va nutq. Fan va tabiat. San'at markazi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

4. Bolalarda konstruktiv faoliyatga barqaror qiziqish,tajriba yaratish ixtiro qilish istagini shakllantirish va mustaqil ravishda tuzilmalarni dizaynlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish qaysi markaz faoliyatida o'rganiladi?

- A. San'at markazi
- B. Qurish yasash konstruksiyalash va elementar matematika
- C. Til va nutq
- D. Fan va tabiat

5. Bolalar iqtidorini namoyon qilish o'z mahoratini namoyon qilish uchun qulay bo'lgan markaz qaysi?

- A. Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish
- B. San'at markazi
- C. Til va nutq
- D. Fan va tabiat.

6. Ushbu markaz yonma-yon joylashtirilishi yoki birlashtirilishi mumkin. Agar markazda yumshoq modulli mebel, shuningdek, oshxona mebellari mavjud bo'lsa, markaz dam olish joyi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

- A. Fan va tabiat;
- B. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish
- C. Til va nutq;
- D. Qurish yasash va elementar matematika;

7. Burchaklarni tashkil etishda xavfsizlikning asosiy tamoyili nima?

- A. Rang - baranglikni ta'minlash.
- B. Juda ko'p o'yinchoqlar qo'yish.
- C. Yoshga mos va xavfsiz vositalar tanlash.
- D. Faqat yangi vositalardan foydalanish.

8.Guruh xonasida tabiat burchagini yaratishda quyiladigan umumiy talablardan biri –

- A. xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilish, narsalar qo'yiladigan javonning shishali bo'lmasligi;

- B. bolalar sinab ko'rish, natijalarni qidirishda o'z harakatlarini takrorlash va o'simliklarni uzoq muddatli kuzatish orqali tajriba qilishlari mumkin;
- C. *o'simliklar yetarli yorug'likka ega bo'lishi uchun yaxshi tabiiy yorug'lik bilan guruh xonasining joylarini tanlang;
- D. bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta'lim shakllarini optimallashtirish va mustaqil faoliyatini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

9-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YILLIK MAVZULI REJA HAFTALIK REJA TUZISHDA RIVOJLANISH MARKAZLARNI AHAMIYATI

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Bolalar iqtidorini namoyon qilish o'z mahoratini namoyon qilish uchun qulay bo'lgan markaz qaysi?
3. Guruhlarda rivojlanish markazlarining joylashuviga qanday talablar qo'yiladi?
4. Burchaklarni tashkil etishda xavfsizlikning asosiy tamoyili nima?

“Muzyorar” metodi

“Muzyorar” metodi- bu metod ta'lim jarayoniga befarqligining oldini olishga dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni va talabalarga ruhiy bosim bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turidir. Demak, ular ta'lim jarayonida yuzaga kelgan “muzlash” ning oldini olish va agar bunday “Muzlash” hosil bo'lgan bo'lsa, uni eritib, yorib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar “muzyorar” larni ta'limni boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, talaba bilan yoki talabalararo muloqot ma'lum sabablarga ko'ra qiyinlashganda ham ishlatish mumkin. Bazi turlarga oid “muzyorar”lar talaba yoki talabalarining bir birlari bilan tanishishlariga mo'ljallangan bo'lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini ularning o'qish yoki ish sharoitlari haqida o'zaro ma'lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini o'z ichiga qamrab oladi. Buning sababi shundaki talaba yoki talabalar darslarning boshlanishida bir birlarini yaxshi bilmaydilar. Shu sababli, ular orasidagi “muzdek” aloqani qandaydir usullar bilan eritib, do'stona aloqa o'rnatish kerak. Hozirgi kunda

dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalashi.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotda samarali qo'llashdir.

II. Yangi mavzuning bayoni: MTTda O'quv rejasini shakllantirishda mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda 20 foizgacha bo'lgan hududiy komponent va davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan majburiy komponentning 80 foizi ko'zda tutilgan.

Mavzuli reja mavzu, maqsad, mazmun va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Faoliyatni tanlashda ta'lim va tarbiya jarayonining umumiy maqsadlari bilan birga rivojlanish sohalari maqsadlari, mazmun va faoliyatining integratsiyasi ham hisobga olinadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish davlat talablarini, shuningdek, davlat o'quv dasturini amalga oshirishga yordam beradigan qisqa muddatli (haftalik) va uzoq muddatli (yillik) rejalarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Mavzuli reja yozma shaklda bo'lishi kerak.

Yillik mavzuli rejada oy mavzulari, har bir yosh yoki yosh guruhi uchun hafta mavzulari aks ettirilgan. MTT mintaqaning xususiyatlari va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z yillik mavzuli rejasini ishlab chiqish huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik mavzuli rejasini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish" tavsiyalariga tayanish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik mavzuli rejasini maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Haftalik reja - bu pedagogning ish jurnali bo'lib, unda ta'lim va tarbiya jarayonining kunlik rejasini aks ettiriladi. Mashg'ulot ishlanmalari kunlik rejaga ilova qilinishi mumkin. Ishlanmalar pedagogning xohishiga binoan, ijodkorlik va xilma-xillikdan foydalangan holda ishlab chiqiladi.

Yillik mavzuli (tematik) reja

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Sentyabr	O'zbekiston — mening Vatanim	1-hafta	Men va bolalar bog'chasi	Men va bolalar bog'chasi	Mening janajon O'zbekistonim	Mening janajon O'zbekistonim
		2-hafta	Mening shahrim	Mening shahrim — mening mahallam	Mening shahrim — mening mahallam	Mening shahrim — mening mahallam
		3-hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam
		4-hafta	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim
Oktyabr	Kuz bo'yoqlari	1-hafta	Oltin kuz	Oltin kuz	Mavsumiy o'zgarishlar Ko'chmanchi qushlar	Mavsumiy o'zgarishlar Ko'chmanchi qushlar

		2- hafta	Sabzavot va mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar
		3- hafta	Non hammaga darkor	Non hammaga darkor	Non hammaga darkor	Non hammaga darkor
		4- hafta	O'zbekiston- ning oq oltini	O'zbekistonnin g oq oltini	O'zbekistonnin g oq oltini	O'zbekistonni ng oq oltini
Noyabr	Transp ort, yo'l hara- kati qoida- lari (YHQ) Hayo- tiy faoliyat xavf- sizligi asos- lari (HFXA)	1- hafta	Transport bilan tanishuv	Yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti
		2- hafta	Rangli svetofo	Rangli svetofo	Ehtiyotkor piyoda haftasi	Ehtiyotkor piyoda haftasi
		3- hafta	Tez yordam va o't o'chirish yordami	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari
		4- hafta	Bizning yaxshi ishlarimiz	Barcha kasblar muhim	Bizning yaxshi ishlarimiz	Bizning yaxshi ishlarimiz
Dekabr	Qish	1- hafta	Qish	Qish	Qish. Konstitutsiya kuni	Qish. Konstitutsiya kuni
		2- hafta	Sog'lom tanda — sog'lom ruh	Sog'lom tanda — sog'lom ruh	Sog'lom tanda — sog'lom ruh	Sog'lom tanda — sog'lom ruh
		3- hafta	Kiyim-bosh	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal
		4- hafta	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?
Yanvar	Bolalar bog'- chasi	1- hafta	Qishki o'yin- kulgilar	Qishki o'yin- kulgilar	Qishki o'yin- kulgilar	Qishki o'yin- kulgilar
		2- hafta	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni
		3- hafta	Men va mening badanim	Men va mening badanim	Men va mening badanim	Men va mening badanim

		4- hafta	Xushmuomalali k alifbosi	Xushmuomalali k alifbosi	Xushmuomalali k alifbosi	Xushmuomal alik alifbosi
Fevral	G'aroyi b dunyo	1- hafta	Bizning inoq mamlakatimiz	Bizning mamlakatimiz — do'stlik va tinchlik mamlakati	Qo'shni mamlakatlar	Qo'shni mamlakatlar
		2- hafta	Hayvonlar va qushlar bilan do'stlashamiz	Hayvonlar va qushlar bilan do'stlashamiz	Dunyo mamlakatlari	Dunyo mamlakatlari
		3- hafta	O'simliklar bilan do'stlashamiz	O'simliklar bilan do'stlashamiz	O'zbekistonning buyuk aroblari	O'zbekistonning buyuk aroblari
		4- hafta	Kitob bilan do'stlashamiz	Kitob bilan do'stlashamiz	Kitob tarixi	Kitob tarixi va inson
Mart	Go'zal bahor	1- hafta	Onamning kuni	Onamning kuni	Onamning kuni	Onamning kuni
		2- hafta	Mavsumiy o'zgarishlar.	Mavsumiy o'zgarishlar.	Mavsumiy o'zgarishlar.	Mavsumiy o'zgarishlar.
		3- hafta	Navro'z bayrami	Navro'z bayrami	Xalq manbalari. Navro'z bayrami	Xalq manbalari. Navro'z bayrami
		4- hafta	Hasharotlar	Hasharotlar	Hasharotlar	Hasharotlar
Aprel	Yer sayyorasi — umumi y uyimiz	1- hafta	Gullab- yashnayotgan bahor	Gullab- yashnayotgan bahor	Gullab- yashnayotgan bahor	Gullab- yashnayotgan bahor
		2- hafta	Koinot sirlari	Koinot sirlari	Koinot sirlari	Koinot sirlari
		3- hafta	Yer sayyorasi kuni	Qushlar hovlisi	Yer sayyorasi kuni	Yer sayyorasi kuni
		4- hafta	O'yinchoqlarga g'amxo'r munosabat	Shaharga g'amxo'r munosabat	Sayyorani saqla!	Sayyorani saqla!
May	Asbobl ar va anjoml ar	1- hafta	Men va mening uyim	Men va mening uyim	Men va mening uyim. Xotira kuni	Men va mening uyim. Xotira kuni
		2- hafta	Mebel	Mebel	Mebel	Mebel. Milliy hunarmandch ilik

		3-hafta	Idishlar	Maishiy asboblari	Idishlar. Milliy naqshlar	Idishlar. Milliy naqshlar
		4-hafta	Maishiy asboblari bizning yordamchilari miz	Maishiy asboblari bizning yordamchilari miz	Maishiy asboblari bizning yordamchilari miz	Maishiy asboblari bizning yordamchilari imiz

Yozgi sog'lomlashtirish davri mavzuvij reja namunasi

Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Yosh guruhlar			
		Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruh
Iyun	1-hafta Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik
Baxtli bolalik	2-hafta: Gullar va qushlar	Qushlar bizning do'stimiz	Gulzorga mehr	Gulzordagi gullar	Gulzordagi gullar
	3-hafta: Tabiat qo'ynida	Bog'imizga sayr qilamiz	Bog'cha bo'ylab sayr	Jonli va jonsiz tabiat	Jonli va jonsiz tabiat
	4-hafta: Ertak qahramonlari - bizning mehmonimiz	Ertak qahramonlari mehmonida	Ertak qahramonlari mehmonida	Ertak qahramonlari mehmonida	Ertak qahramonlari mehmonida
Iyul	1-hafta: Yoz o'tmoqda soz	Yozgi o'yinlar	Yozgi o'yinlar	Yoz - soz	Yoz - soz
Quvnoq yoz	2-hafta: Sport - salomatlik garovi	Quvnoq estafetalar	Quvnoq estafetalar	Biz yosh sportchilarmiz	Biz yosh sportchilarmiz
	3-hafta: Kitoblar olamiga sayohat	Ertaklar yaxshilikka etaklar	Ertaklar olamiga sayyohat	Qiziqarli uchrashuvlar	Qiziqarli uchrashuvlar
	4-hafta: Suv bayrami	Suv qiroli mehmonida	Suv qiroli mehmonida	Suvning xususiyatlari	Suvning xususiyatlari
Avgust	1-hafta: Vitaminlar	Sabzavot va mevalar	Sabzavot va mevalar	Vitaminlar bilan qiziqarli uchrashuvlar	Vitaminlarning sarguzashtlari
Quvnoq va sog'lom bolalar	2-hafta: Buni bilishimiz kerak	Kattalarga quloq sol	Kattalarga quloq sol	Buni bilish foydali	Buni bilish foydali
	3-hafta: O'ynaymiz-quvnaymiz	O'yinlar shaharchasi	O'yinlar shaharchasi	O'ynab o'rganamiz	O'ynab o'rganamiz
	4-hafta: Yoz taassurotlari	Zavqli yoz	Zavqli yoz	Yoz o'tdi - soz	Yoz o'tdi - soz

III.Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy faoliyat qanday tashkil etiladi?
2. MTTda o'quv-tarbiyaviy faoliyat qay tartibda rejalashtiriladi?
3. Rivojlanish markazlarida haftalik mavzu bo'icha ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etiladi?
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar faoliyatini o'quv rejasi qanday tuziladi?
5. Davlat o'quv dasturi asosida yillik mavzuli rejalashtirishni oylar kesimida aytib bering.
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lomlashtirish davrida mavzuli rejalashtirish qanday bo'ladi?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Muammoli vaziyat" interfaol metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv rejasi shakllantirilganda nimaga asoslanadi?

- A. Tarbiyachining shaxsiy tajribasiga.
- B. Davlat ta'lim siyosatiga.
- C. Ota-onalarning takliflariga
- D. Davlat o'quv dasturiga.

2. Yillik mavzuli rejalashtirishda nimalar inobatga olinadi?

- A. Mahalliy urf-odatlar.
- B. Faqat darslikdagi mavzular.
- C. Oy va hafta mavzulari, yosh guruhlar xususiyatlari.
- D. Tarbiyachining ish rejalari.

3. Haftalik reja nimani hisobga olgan holda tuziladi?

- A. Tarbiyachi kunlik ish rejasi asosida.

- B. Bolalar ishtiyoqi.
 - C. Yillik mavzuli reja asosida.
 - D. Ota-onalar fikri bilan
- 4. Rejalashtirish qanday yondashuv asosida amalga oshiriladi?**
- A. Fanlar bo'yicha alohida yondashuv.
 - B. Markazlashtirilgan yondashuv.
 - C. Shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va integratsiyalashgan yondashuv.
 - D. Tarbiyachining qat'iy rejasi asosida.
- 5. O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishning qanday turlari mavjud?**
- A. Yoshga va qiziqishga qarab
 - B. Kunlik va oylik
 - C. Yillik mavzuli va haftalik
 - D. Haftalik va oylik.
- 6. Kommunikativ va mustaqil faoliyat, ochiq havoda bo'lish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish (sanitariya-gigiyena ko'nikmalari) — necha foizni tashkil etadi?**
- A. 40%
 - B. 50%
 - C. 49%
 - D. 55%
- 7. Rejalashtirishning asosiy maqsadi nima?**
- A. Tarbiyachi ishini qulaylashtirish
 - B. Bolalar vaqtini to'ldirish
 - C. O'yinlar sonini ko'paytirish
 - D. Bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.
- 8. Rejalashtirishda 20% hududiy komponent deganda nima tushuniladi?**
- A. Mahalliy budjet hisobidan tashkil etilgan faoliyat
 - B. *Mahalliy sharoit va ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'lim mazmuni
 - C. Tarbiyachining tashabbusi
 - D. Bolalarning mustaqil tanlovi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

10-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "QURISH, KONSTRUKSIYALASH VA MATEMATIKA MARKAZI"NI TASHKIL ETISH.

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. MTTda rivojlanish markazlari nima asosida tashkil etiladi?
3. Guruhlarda rivojlanish markazlarining joylashuviga qanday talablar qo'yiladi?

"Muammoli vaziyat" metodi.

Ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilar-dan iborat: 1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.


6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Quyida "Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi keltirilgan.

"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi



II.Yangi mavzuning bayoni:

Qurish-yasash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sevimli mashg'ulot bo'lib, ijodkorlik, fikrlash va nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda foydali. Dizayn va konstruktiv modellash-

tirish faoliyati markazi guruhning rivojlanish muhitining muhim qismidir. Bunday burchakni to'g'ri tartibga solish va mazmun bilan to'ldirish uchun tarbiyachi har bir yosh guruhida dizayn va model-lashtirishni tashkil etishda qo'llaniladigan dastur talablarini bilishi kerak.

“Qurish-yasash, konstrukstiyalash va matematika” mark-azi – Markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug'ullanish imkoniga ega.

Bolalar orasidagi suhbatlar tinglansa, ularning muloqotida “Menga katta g'ishtni ber”, “Menga qizil kerak”, “O'ng tomoningdagi meniki”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa katta ”, “men yasagan mashinaning rangi oq”, “Mana senga ko'k lego”, “Mening mashinamga 10 ta odam sig'adi”, “Nima uchun buzilib ketdi?, chunki sen tagiga ko'p g'isht qo'ymading, tagi kichkina bo'lib qoldi”va boshqa jummalarni eshitasiz.

Matematik va matematik tushunchalar kundalik hayotda qo'llaniladi: vaqt o'tishini o'lchash va kuzatishda; ishda, qishloq xo'ja-ligida, qurilishda va pazandalikda, savdoda, oziq-ovqat sotib olishdan global moliyaviy operatsiyalargacha. Matematika ham bolalarning kechinmalariga, masalan, ular uyg'onganlarida va uxlashlarida kiradi. Yosh bolalarda hisoblash ko'nikmalari maktabda va hayotda keyingi muvaffaqiyatli o'rganish uchun muhim fundamental ko'nikmalardir.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazining maq-sadlari:

- bolalarda konstruktiv faoliyatga barqaror qiziqish, tajriba, yaratish, ixtiro qilish istagini shakllantirish va mustaqil ravishda tuzilmalarni, dizaynlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarga sxemalar bo'yicha qurish, ob'ektlarni xususiyatlariga ko'ra kuzatish, tahlil qilish, solishtirish va solishtirish, erkin o'yin faoliyatida ijodkorlikni namoyish etish;
- qurilish to'plamlaridan foydalanish va shartlar, mavzular va rejalarga muvofiq qurilishni mashq qilish; dizayn jarayonida

ijodkorlik va so'z erkinligini rag'batlantirish; tayyor chizmalarni tushunish va ulardan foydalanishga o'rgatish hamda dizaynga o'z o'zgartirishlar kiritish;

- boshlang'ich matematikani o'rganishga, yangi matematik bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishni maqsadli rivojlantirish;
- bolalarda qiziqish olingan asosiy matematik bilimlarni amalda qo'llash, undan oqilona foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- axborotni ijodiy va noan'anaviy tarzda o'zgartirish qobiliyati bolalarning matematik tushunchalarini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan maqsadli ishlarni olib borish va tajriba almashish imkoniyatiga ega.

Matematik o'yinda ular o'zlarini ifodalaydilar va tarbiyachiga haqiqiy bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatini beradilar (o'yin davomida to'g'ri javob berish, tarbiyachi va do'stlarning yordamini olish).



Hisoblash son va miqdorni tushunishni namoyish etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bola "bu qanday raqam?"

degan savolga javob berish qobiliyatini ham nazarda tutadi “Qaysi biri keyingi keladi?” Hisoblash muayyan material ustida bajariladigan qo‘shish va ayirish jarayonidir.

Tahlil qilish – ob’ektlarni xossalariга ko‘ra (masalan, rangi, shakli, o‘lchami) saralash qobiliyatini bildiradi. Savolga javob bering: "Nima uchun hamma narsa birlashtirilgan?" ob'ektlar va ularning munosabatlari, shuningdek, shakllarni tanib olish va takroriy ketma-ketliklarni anglash jarayonidir.

Demak bolalar muloqotida ayirish, qo‘shish, kattalikni bilish, taqqoslash kabi matematik iboralar ishlatiladi va ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi. O‘z ishlarini tahlil qilishni o‘rganadi. Aniq, oddiy raqamlar va hisob-kitoblar uchun qiziqarli rasmlar bilan tasvirlangan kitoblarning yaxshi tanlangan tanlovi bolaning so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Bu tuzilmalarni nomlash, bloklarning shakllari va o'lchamlarini tavsiflash, kelajakdagi binoni muhokama qilish, u haqida gapirish, tegishli kitoblar bilan tanishish va taqqoslash imkonini beruvchi lug'atni egallash jarayonida sodir bo'ladi (bir xil, boshqacha, uzun, qisqa), matematika asoslari boshqa bilim sohalari, ayniqsa til va mantiq bilan kesishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun quyidagi matematik tushunchalar ajratib ko'rsatilgan:

- Yakkama-yakka o'zaro bog'liq ob'ektlarni bir-biriga bevosita bog'liq holda joylashtirishni o'z ichiga oladi;
- Seriyalash ob'yektlarni avval o'lchamiga ko'ra (kichikdan kattagacha), keyin esa soni bo'yicha tartiblash imkoniyatini o'z ichiga oladi.
- Ikkinchisini amalga oshirish uchun bola raqamlarni bilishi va ularga miqdorlarni belgilash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Faoliyat jarayonida bolalar quruvchi va me'mor, o'ynab, ijodkor bo'lib, o'z g'oyalarini o'ylab topadilar va amalga oshiradilar va turli xil vazifalar hal qilinadi. Bolalar tomonidan olingan bilimlar ular uchun dolzarb va zarurdir.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi – bu nozik va konstruktiv ijodkorlik markazi. Bu markaz turli vazifalarni bajaradi, birinchi navbatda, bolalarda ijodkorlik, qiziquvchanlik,



tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Yo'naltirilgan:

- vizual va konstruktiv faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: tabiiy materiallardan, qog'ozdan, qutilardan va boshqalardan chizish, modellashtirish, qo'llash, loyihalash;
- turli ko'rgazmali materiallardan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, turli tasviriy texnikalarni rivojlantirish;
- qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish bo'yicha tajriba orttirish;
- atrofdagi voqelik ob'ektlari va ob'ektlarini chizish va modellashtirishning elementar usullarini o'zlashtirish;
- turli ko'rgazmali materiallarning xossalari va sifatlari haqida g'oyalarni shakllantirish.
- chiziq, rang, shakl va tekstura bilan tanishish;
- san'atning turli janrlari haqida g'oyalarni shakllantirish: rangtasvir, grafika,
- san'at asarlarini idrok etish, uyg'unlik va go'zallik hissi, badiiy didni rivojlantirish.

Xulosa qilib shuni aytaolamizki, qurish, konstruksiyalash faoliyatida bolalar erkin ijod qilishini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama shakllanishida yordam beradi.

III.Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida “Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi” qanday ahamiyatga ega?
2. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazining maqsadi nimalardan iborat?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda Lego qurilish to'plamidan foydalanishni ahamiyati nimada?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. “Tushunchalar tahlili” metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish.

Test topshiriqlari

1. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazining maqsadlaridan biri bu –

- A. grafik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun materiallar (o'lchagichlar, trafaretlar, turli xil soyalar uchun spirograf o'lchagichlar, didaktik o'yinlar va boshqalar);
- B. turli ko'rgazmali materiallardan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, turli tasviriy texnikalarni rivojlantirish;
- C. uning joylashuvi imkon qadar bolalar o'ynaydigan joylardan uzoqda, chunki shovqinli o'yinlar bolani kitob bilan muloqotdan chalg'itishi mumkin;
- D. bolalarda qiziqish olingan asosiy matematik bilimlarni amalda qo'llash, undan oqilona foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;

- 2. "Qurish yasash va matematika markazi" ni tashkil etishda qanday material va jihozlar kerak bo'ladi?**
- A. Barg daraxt po'stlog'i
 - B. Qum soat, rangli qalamlar
 - C. Lego, Hayvonlar haykallari, prizmalar, konuslar.
 - D. Bo'yoqlar, sanoq cho'plar.
- 3. Qaysi markaz orqali bolalarda hisoblash ko'nikmalari maktabda va hayotda keyingi muvaffaqiyatli o'rganish uchun muhim fundamental ko'nikmalarni yaratadi?**
- A. Til va nutq markazi;
 - B. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi;
 - C. San'at markazi;
 - D. Fan va tabiat markazi.
- 4. Qaysi markaz orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi?**
- A. "Til va nutq" markazi
 - B. "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazi
 - C. "Qurish-yasash, konstruktsiyalash va matematika" markazi
 - D. "Fan va tabiat markazi" markazi
- 5. Qaysi markazni zonalash muhim, shunda uning yonidan o'tayotganlar qurilmalarni buzib yubormaydi?**
- A. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish;
 - B. Til va nutq;
 - C. Qurish, konstruksiyalash va matematika;
 - D. Fan va tabiat.
- 6. Qaysi o'yinchoq to'plamidan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun ajoyib vosita hisoblanadi?**
- A. Kubiklar
 - B. Lego.
 - C. Mozaika
 - D. Shashka

7. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda qanday xislatlar rivojlanadi?

- A.Qobiliyatlilik.
- B.Sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi.
- C.Ijodkorlikning o'zi.
- D.Atrof-olam haqidagi g'amxo'rlik qilish.

8. Qurish konstruksiyalash va matematika markazi uchun qanday resurslar kerak bo'ladi?

- A.Qurilish bloklari, lego, konstruktor, qog'ozdan geometrik shakllar
- B.Loy, suv, globus.
- C.Teatr, go'g'irchoq.
- D.Syujetli rasmlar, AKT materiallari, oilaviy rasmlar xalq ertaklari va she'rlari to'plami

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

11-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR VA SAHNALASHTIRISH MARKAZI"NI TASHKIL ETISH.

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. "Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi" ning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlardagi ahamiyati haqida gapiring?
2. "Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi"ni tashkil etishda qanday material va jihozlarni bo'lishi kerak?
3. "Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi"ga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

"Tuchunchalar tahlili" metodi

"Tuchunchalar tahlili" metodi – bu metodning mohiyati o'zlashtirilgan mavzularini qayta yodga olish, biron - bir mavzu bo'yicha pedagog-o'qituvchi, tomonidan berilgan tuchunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib olish va baholashga imkoniyat yaratishga yo'naltirilgan metoddir.

"Tuchunchalar tahlili" metodining maqsadi amaliy mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tuchunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatishdan iborat.

"Tuchunchalar tahlili" metodning qo'llanishi:

- o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda);
- mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.
- o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat

o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan.

Tuchunchalar	mazmuni

“Tuchunchalar tahlili” metodining o'tkazish tartibi:

- ta'lim oluvchilarni guruhlariga ajratadi;
- ta'lim oluvchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- ta'lim oluvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tuchunchalar bilan tanishadilar;
- ta'lim oluvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tuchunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tuchunchalarni qanday tuchungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- pedagog tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tuchunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tuchunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tuchunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;
- har bir tinglovchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tuchunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

“Tuchunchalar tahlili” metodidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tuchunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan

nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin

II.Yangi mavzuning bayoni: “Syujetli–rolli o’yinlar va sahna-lashtirish” markazi – Markazni bolalar iqtidorini namoyon bo’lishiga, o’z mahoratini ko’rsatishi uchun juda qulay muhit. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo’lib, o’yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o’rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega. O’yinlarda oila a’zolarining o’zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o’rganish) imkoni mavjud.



Rolli o'yin - bu bolalar uchun mashg'ulot shartli vaziyatlarda ular u yoki bu faoliyat sohasini qayta yaratadilar va muhim ijtimoiy rollarni o'zlashtirish uchun kattalar o'rtasidagi muloqot va rasmiy va norasmiy muloqot qobiliyatlarini shakllantirish. Bola maktabgacha yoshdagi ustalar ichki tartibga solish vositalari kommunikativ harakatlar, madaniy xulq-atvorni o'zlashtirish, sezish boshqalarning xatti-harakati, ehtimolni tasavvur qilish kommunikativ vaziyatlar.

Rol syujetni amalga oshiruvchi va syujet-rolning asosiy elementidir o'yinlar. Bola uchun rol uning o'yin pozitsiyasidir. Maktabgacha yoshdagi bola o'zini o'yin xarakteriga bog'laydi va xulq-atvorga muvofiq harakat qiladi.

Rolli o'yinlarda bolalarning quyidagi kommunikativ rivojlanishiga qaratiladi:

- hissiy sezgirlikni, empatiyani shakllantirish;
- tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga tayyorlik;
- qoidalar, umume'tirof etilgan me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish;
- hurmat va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish;
- oila, maktabgacha ta'lim tashkilotiguruhi, kattalar va tengdoshlar;
- muloqotni rivojlantirish, o'zaro aloqa qilish qobiliyatini shakllantirish
- kattalar va tengdoshlari bilan maktabgacha yoshdagi bola;
- mustaqillikni, o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirish va ularning harakatlarini yo'naltirish.

Rolli o'yinlarda faol o'zaro ta'sir o'tkazish, kollektiv tengdoshlari bilan mashg'ulotlar, bolalar birlamchi ijtimoiy o'rganish normalar va qoidalar. O'yin maktabgacha tarbiyachiga nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy,

P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli–rolli o‘yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko‘rinishlari – bolalar o‘yinlarining asosiy mazmuni bo‘lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o‘yinlar rivojlanishi darajasini o‘rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o‘yinlarini kuzatish;
- o‘yin rivojining asosiy yo‘nalishlari, o‘yin mavzusi, o‘yin mazmuni, bola o‘yin faoliyatining rivoji, o‘yinda o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi bo‘yicha tavsifnoma tuzish;
- o‘yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2-bosqich. Kattalarning o‘yin mavzui va mazmuniga ta’sir etishi:

- o‘yin mavzui bo‘yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o‘qib berish;
- illyustrativ rasmlar ko‘rsatish;
- mavzu bo‘yicha turli mashg‘ulotlar;
- tasviriyl faoliyat mashg‘ulotlari.

3-bosqich. o‘yinga tayyorgarlik (o‘yin o‘ynash uchun maxsus joy, o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari):

- tayyor o‘yinchoqlarni tanlash;
- qo‘lda yasalgan o‘yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug‘ullanishlari uchun o‘yin zonasini tashkil etish.

4-bosqich. Bolalarni o‘ynashga o‘rgatish (o‘yin jarayoni va boshqa narsalarni o‘yinda aks ettirish):

- o‘yinchoq va uning o‘rnini bosuvchi buyumlar ta’sirini o‘rganish;
- o‘yinda xayoliyl tasavvurlarni aks ettirishga o‘rgatish;
- o‘yinda so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish;
- o‘yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so‘z va harakat;

- harakat va o'yin materiali,
- so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili hisoblanadi.

5-bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;

- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;

- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish;

- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;

- ahil jamoani shakllantirish, mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;

- kattalarning o'yinga ta'sir etishi – maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'lag'onli yordam berish; - bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.



Syujetli – rolli o'yin faoliyati asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan

fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Syujetli-rolli o'yin bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning mazmunini aks ettiradi, dunyo, unda mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlar va qoidalar. Bolalar ular bajaradigan rol bilan bog'liq his-tuyg'ularni chin dildan boshdan kechirish: onaning iliqligi va muloyimligi, otaning oilaga g'amxo'rliqi, tarbiyachining qattiqqo'lligi, haydovchi yoki shifokorning mas'uliyati, sartaroshning nafisligi va boshqalar. Maktabgacha ta'limda tarbiyachi o'yinga fantastika va fantaziyani olib keladi, shuning uchun o'yinda voqelik va fantastika o'zaro bog'langan. Bolalar bir vaqtning o'zida o'ynashadi, drama-turklar, rejissyorlar, dekoratorlar va aktyorlar rolini bajaradilar. Shunday qilib, olingan ma'lumotlar o'yin mazmuni manbasiga aylanadi va bolaning aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi, bu zarur o'yin tarbiyachidan doimiy, maqsadli rahbarlik faoliyati, o'yinlarga shaxsiy qiziqishi, istagi bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.

Rolli o'yin uzoq va qiyin yo'lni bosib o'tadi, kichik maktabgacha yoshdan boshlab katta maktabgacha yoshda rolli va yonma-yon o'yinlar uzoq muddatliga aylanib, o'zining eng yuqori rivojlanishiga erishadi batafsil syujetli jamoali ijodiy o'yinga aylanadi.

Shu munosabat bilan rolli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolaning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish samarali usuldir.

III.Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida Syujetli-rolli o'yinlarni tashkil etishning ahamiyatini gapiring?
2. Guruhlarda "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi"ni qanday tashkil etiladi izohlang?
3. Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi qanday bosqichlarda amalga oshiriladi tahlil qiling?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Xulosalash" (Rezyume, Veer)" metodi o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish.

Test topshiriqlari

1. Qaysi Markazda bolalar iqtidorini namoyon bo'lishiga, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhit?

- A. Til va nutq markazi;
- B. Syujetli rolli dramalashtirish markazi;
- C. San'at markazi;
- D. Qurish yasash va elementar matematika markazi.

2. Rolli o'yinlar bolalarning qanday kommunikativ rivojlanishiga qaratiladi?

- A. turli janr va xalqlarning badiiy adabiyoti, rus va xorijiy yozuvchilarning asarlari bilan tanishish
- B. kitobga, adabiy asar tinglashga, mustaqil o'qishga qiziqishni oshirish
- C. mustaqillikni, o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirish va ularning harakatlarini yo'naltirish
- D. bolalar mumtoz adabiyoti bilan tanishtirish orqali odob-axloq va ma'naviyatni tarbiyalash.

3. Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish nechta asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi?

- A. 2 bosqich
- B. 3 bosqich
- C. 4 bosqich
- D. 5 bosqich

4. MTTda "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazining ahamiyati.

- A. O'yin Faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.
- B. Bolalarda tabiat haqida tushunchalarni uyg'otadi.

- C. kitobga, adabiy asar tinglashga, mustaqil o'qishga qiziqishni oshiradi.
- D. Bolalar iqtidorini namoyon bo'lishiga o'z mahoratini ko'rsatish uchun juda qulay.

5. Rolli o'yinlarni shakllantirishning pedagogik shartlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A. Bola o'zini nazorat qilishi va o'zini baholash i o'rganadi.
- B. Bolani Real dunyo bilan tanishtirish maktabgacha kichik yoshdan Syujetli-rolli o'in ko'nikmalarini egallash.
- C. MTTda tarbiyachi o'yinga fantastik va fantaziyani o'zaro bog'lash.
- D. Hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalarini va me'yorlariga rioya qilish.

6. Qaysi faoliyatda bu bolaning faol ijodiy fikrlash shakli, atrofdagi haqiqat, uning ob'ektlari va hodisalar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi?

- A. Mehnat
- B. Kitob o'qish
- C. Ertak tinglash;
- D. Syujetli rolli o'yin.

7. Qaysi markazni bolalarni "Men" ini shakllantiruvchi markaz deyish mumkin?

- A. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi
- B. Musiqa markazi
- C. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish;
- D. Til va nutq markazi.

8. "Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida o'yinlar orqali bola nimani o'rganadi?

- A. Faqat harakatlarni takrorlashni;
- B. Ijtimoiy munosabat va muloqotni;
- C. Faqat ertaklarni yod olishni;
- D. Matematik hisob-kitobni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

12-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "TIL VA NUTQ MARKAZI"NI TASHKIL ETISH

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida Syujetli-rolli o'yinlarni tashkil tishning ahamiyatini gapiring?
2. Guruhlarda "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi"ni qanday tashkil etiladi izohlang?
3. Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi qanday bosqichlarda amalga oshiriladi tahlil qiling?
4. "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi"ni tashkil etishda qanday material va jihozlar bo'lishi kerak?
5. "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish"ga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

"Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi

"Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi-bu metod ta'lim jara-yonida keng qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib bu metodning maqsadi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarak-teridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Bu metod interfaol metodlar tarkibiga mansub bo'lib tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda ta'lim ovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilish-ga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'u-lotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida o'rganilgan mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

"Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodini amalga oshirish tartibi:

➤ pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

➤ dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan talabalarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

➤ har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

➤ navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlash-tiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

II. Yangi mavzuning bayoni:

“Til va nutq” markazi – Markazda bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Boladagi ko'pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruxlarda ishlash jarayonida yo'qola boshlaydi. AKT vositalari, turli xildagi mavzuli rasmlar orqali bola mustaqil ravishda o'ylashi, fikrlashi, mazmunni idrok etish imkoniga ega. Markazga qo'yilgan mazmunli rasmlar orqali majburiy emas, balki o'z xolicha hikoyalar tuzish imkoniga ega. Mavzularni tanlash huquqiga ega.

Til va nutq markazida samarali ta'lim olish bolaning harflarni nomlash, aytish, o'qish, yozishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga asoslanadi. Ushbu markaz quyidagilarni ta'minlaydi:

- turli janr va xalqlarning badiiy adabiyoti, rus va xorijiy yozuvchilarning asarlari bilan tanishish;

- kitobga, adabiy asar tinglashga, mustaqil o'qishga qiziqishni oshirish;

- bolalar mumtoz adabiyoti bilan tanishtirish orqali odob-axloq va ma'naviyatni tarbiyalash;

- uy qurilishi kitoblarini tayyorlash orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining "Til va nutq" rivojlanish markazida tashkil etiladigan innovatsion faoliyatning an'anaviy faoliyatdan farqi shundaki, pedagog ustoz rolini o'ynamaydi, balki ta'lim-tarbiya jarayonida hamkor rolini o'ynaydi va u "yonda emas, yuqorida emas, balki birga" pozitsiyasiga amal qiladi.



Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birgalikdagi ta'limiy faoliyatlarda o'yin usullarini muntazam ravishda qo'llash tavsiya etiladi. "Til va nutq" markazida ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning ahamiyati katta.

Nº	Markaz nomi	Jihoz va materiallar
1	Til va nutq	Jihozlar: • stol (1), stullar (2-4); • jihozlar va bolalar adabiyotlarini saqlash uchun ochiq javonlar; • magnit doska; • yumshoq bolalar mebellari (divan, kreslo); • televizor yoki eshitish vositali audio markaz. Materiallar: • qirqiladigan rasmlar; • pazllar; • rasmlı kubiklar to'plami;

	• loto; • domino; • juftli kartochkalar (xotira o'yinlari); • bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq qoidalari bo'lgan boshqa stolbosma o'yinlari (yurish o'yinlari h.k.); • boshqotirma o'yinlari (masalan, tangram va boshqalar); • alifbo plakati; • magnitli alifbo; • harfli va bo'g'inli kubiklar; • qora va rangli qalamlar, flomasterlar; • trafaretlar; • lineykalar; • qog'oz, konvertlar; • yozish uchun mashq daftarlari, suv flomaster, latta; • audioyozuvli disklar (ertaklar, hikoyalar); • musiqali kompakt disklar; • bolalar badiiy adabiyoti (katta, oddiy matnli, tasvirli kitoblar) • bolalar uchun o'quv adabiyoti (ko'plab tasviriy materiallar bilan)
--	--

“Til va nutq” markazida turli xil o'yin faoliyatlarida ishlatiladigan barcha zarur didaktik materiallar tarbiyalanuvchilarni so'zlashga, hikoya qilishga undaydigan bo'lishi kerak.

“Til va nutq” markazini yaratish bir qator talablarga ega:

“Til va nutq” markazini jihozlashda barcha vositalar guruhning yosh xususiyatlariga to'liq muvofiq bo'lishi shart.

- Tarbiyalanuvchilarga “Til va nutq” markazida o'zlarini qulay his etishlari uchun jozibali sharoit yaratilgan bo'lishi.
- Markazda xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilish, kitoblar qo'yiladigan javonning shishali bo'lmasligi, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish uchun detalli didaktik o'yin vositalarining joylashtirilganligi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda til va nutq bilan bog'liq masalalar yetarlicha. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari "Til va nutq markaz"larida faoliyatni to'g'ri tashkil etishlari maqsadga muvofiq. Bu pedagog tarbiyachidan katta bilim va keng dunyoqarashni talab qiladi.



III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. "Til va nutq markazi" ning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishagi ahamiyatini izohlang?
2. Guruhlarda "Til va nutq markazi"ni tashkil etish qanday ahamiyatga ega ekanligini izohlang?
3. "Til va nutq" markazini yaratish bir qanday talablarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?

IV. Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. «NILUFAR GULI» metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Til va nutq markazi" qaysi mashg'ulotlar bilan bog'liqligini ko'rsating?

- A. Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar
- B. Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari
- C. Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami
- D. Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari.

2. Bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari savol-javob mavzu asosida suhbat hikoya tuzish imkoniyati qaysi markazda shakllanadi?

- A. Fan va tabiat
- B. Til va nutq
- C. Qurish yasash konstruksiyalash va elementar matematika
- D. Syujetli rolly o'yinlar va sahnalashtirish

3. Bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari savol-javob mavzu asosida suhbat hikoya tuzish imkoniyati qaysi markazda shakllanadi?

- A. Fan va tabiat
- B. Til va nutq
- C. Qurish yasash konstruksiyalash va elementar matematika
- D. Syujetli rolly o'yinlar va sahnalashtirish

4. Til va nutq markazida qanday resurslar bo'lishi kerak?

- A. Loy, qum, tosh, maxsus idishlar, sharlar, magnit, magnitli doska, xona o'simliklari
- B. Qurilish bloklari, lego, konstruktor, qog'ozdan geometrik shakllar
- C. Syujetli rasmlar, AKT materiallari, oilaviy rasmlar xalq ertaklari va she'rlari to'plami
- D. Stol teatri, qo'g'irchoq teatri.

5. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining kichik sohasini toping?

- A. Yirik matorika
- B. Mayda matorika

C. Nutq va til

D. Sensomatorika.

6. “Bu yerda bolalarning tinchligini buzadigan va dam olishiga xalaqit beradigan faol o‘yinlar o‘tkazilmaydi”-bu qaysi burchakka quyiladigan talablarga kiradi?

A. Xilvat burchak;

B. Dam olish joyi;

C. Kichik kutubxona;

D. Til va nutq markazi.

7. Didaktik o‘yinlar tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar qaysi markazda qo‘llanilad?

A. Fan va tabiat markazi

B. San‘at markazi

C. Til va nutq markazi

D. Syujetli rol va dramalashtirish markazi.

8. Qaysi markaz guruhning eng tinch qismida, bolalar faol faoliyati zonasidan uzoqroqda joylashgan bo‘lishi mumkin?

A. Fan va tabiat

B. Til va nutq

C. Syujetli-rol o‘yinlar va sahnalashtirish;

D. San‘at.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. “Maktabgacha pedagogika” O‘quv qo‘llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo‘latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

13-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "FAN VA TABIAT MARKAZI"NI TASHKIL ETISH

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. "Til va nutq markazi" ning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishagi ahamiyatini izohlang?
2. "Til va nutq" markazini tashkil etishda qanday material va jihozlar bo'lishi kerak?
3. "Til va nutq" markaziga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

"Charxpalak" interfaol metodi

"Charxpalak" interfaol metodi- bu metod ta'lim jarayonida uzoq yillardan buyon foydalanib kelinayotgan metodlardan biri bo'lib bunda ta'lim oluvchilar guruhlariga bo'linadi, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Bu metod orqali ta'lim oluvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'zini-o'zi baholashga o'rgatib borish hamda qisqa vaqt ichida ta'lim beruvchi tomonidan barcha ta'lim oluvchilarni egallagan bilimlarini baholashga erishish mumkin. Bu metodni qo'llash jarayonida ta'lim oluvchilar o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, guruh bo'lib ishashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga o'rganadi.

"Charxpalak" interfaol usulida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish natejasida darslarini qiziqarli bo'lishiga erishishimiz mumkin. Bu metodning asosiy sharti savollar, javoblar va ma'lumotlar yozilgan varaqalar talabalarga xuddi charxpalak kabi ularning orasida aynalishi ularni fikrlashga va tinimsiz harakat qilishga undashi kerak.

II. Yangi mavzuning bayoni: Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlaridagi fan va tabiat tarixi markazi bolalar atrofidagi dunyodagi narsalarni kuzatish va o'rganish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi. Bolalar atrofidagi dunyo haqida faol ma'lumot to'playdigan tadqiqotchilar tug'iladi. Ular ob'ektlarni kuzatish va tajribalar orqali dunyoni tushunishga harakat qiladilar.

“Fan va tabiat markazi” markazi – Tajriba sinov maydonchasida oʻtkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uygʻotadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi xodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat va bu markazni toʻgʻri ishlatilsa bolalar tabiat haqidagi 90% bilimni shu erda olishi mumkin. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uygʻotadi. Markazda olib borilayotgan turli tajribalar orqali bolalar jismlarning foydali va zarar tomonlarini bilib olish imkoniga ega. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligi, ularni nimadan olinganligi haqidagi bilimlarni olish orqali ularga boʻlgan munosabatlari ijobiy tomonga oʻzgaradi. Masalan nonni dasturxonimizga kelishi, paxtaning chigitini ezish orqali undan yogʻ chiqishini bilish, tarvuzning urugʻida yogʻning yoʻqligini, piyozning ildizi bilan stakandagi suvga solib qoʻyilsa uni oʻsishi, urugʻlarni tuvaklarga sepish orqali ularni unib chiqishini koʻrish bolalar uchun juda qiziqarli.

Fan va tabiat markazi guruhdagi eng yorqin joy. Uning yashil hududi bolalarni oʻziga jalb qiladi. Bu erda bolalar nafaqat oʻrga-nishadi, tajriba qilishadi, balki koʻpincha dam olishadi. Shu sababli, siz burchakning estetikasiga alohida eʼtibor berishingiz kerak.



Ko'pchilik bolalar qum, suv bilan o'ynashdan katta zavq olishadi. Tabiatshunoslik g'oyalarini rivojlantirish: tajriba va kuzatish, moddalar holatini o'zgartirish. Jismoniy rivojlanish: ko'z va qo'llarni muvofiqlashtirishdan foydalanish, nozik vosita mahoratini rivojlantiriladi.

Tabiatning maqsadi - bu maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashning barcha maqsadlarini bir vaqtning o'zida amalga oshirishga qodir bo'lgan sub'ekt-fazoviy rivojlanish muhitining bir qismi: axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy va, albatta, ekologik.

Guruh xonasida tabiat burchagini yaratishda siz umumiy talablarga rioya qilishingiz kerak:

Tabiatning burchagi uchun o'simliklar yetarli yorug'likka ega bo'lishi uchun yaxshi tabiiy yorug'lik bilan guruh xonasining joylarini tanlang.

Guruh xonalarida hayvonlar va qushlarni saqlash taqiqlanadi. Agar so'ralsa, bolalar bog'chasida ular uchun alohida xona ajratiladi.

Bolalar tomonidan ishlatiladigan barcha materiallar xavfsiz bo'lishi kerak. Shuning uchun siz zaharli yoki tikanli o'simliklarni, shuningdek, o'tkir asboblarni va zaharli kimyoviy moddalarni ishlatmasligingiz kerak.

Bu markaz guruhda juda muhim, chunki u bolalarga yangi bilim olishga yordam beradi. Bu erda bolalar sinab ko'rish, natijalarni qidirishda o'z harakatlarini takrorlash va o'simliklarni uzoq muddatli kuzatish orqali tajriba qilishlari mumkin.

№	Markaz nomi	Jihoz va materiallar
1	Fan va tabiat	Jihozlar: • stol (1), stullar (2-4); • materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar. Materiallar: • tadqiqot uchun turli ob'ektlar to'plami (toshlar, dengiz chig'anog'i, qarag'ay g'uddasi, minerallar, gazlamalar, urug'lar, o'simliklar (gerbariy va boshqalar) to'plamlari);

	• kattalashtiradigan oynalar, lupalar; • mikroskop; • magnitlar to'plami; • tajriba uchun to'plamlar; • tarozilar; • bolalar uchun xavfsiz termometrlar; • qum soati, sekundomer; • o'lchov stakanlari to'plamlari; • ob-havo taqvimlari; • globus, geografik xaritalar, bolalar atlaslari; • tasvirli o'quv kitoblari, plakatlari, rasmlari.
--	---

Bolalar tabiiy dunyoni o'rganishda mustaqil faoliyat uchun katta hajmdagi didaktik materiallar va xavfsiz tabiiy ob'ektlardan erkin foydalanishlari kerak.

Burchakda ijodkorlik (chizish, haykaltaroshlik, applikasiya) uchun sharoit yaratilishi, tabiat va ob-havo taqvimlari, bolalarning ishi uchun joy bo'lishi kerak.

Tabiat burchagining mazmuni bolalarning yoshiga mos kelishi kerak.

Tabiat burchagi guruhdagi eng yorqin joy. Uning yashil hududi bolalarni o'ziga jalb qiladi. Bu erda bolalar nafaqat o'rganishadi, o'r-ganishadi va tajriba qilishadi, balki ko'pincha dam olishadi. Shu sa-babli, siz burchakning estetikasiga alohida e'tibor berishingiz kerak.

Xona o'simliklarini ekologik jihatdan to'g'ri parvarish qilish - bu joyning yorug'lik darajasini, xonaning harorati va namligini hisobga olgan holda, ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan xonaning maydoniga joylashtirish; kerakli miqdorda sug'orish, kerakli tarkib-dagi tuproqni tanlash va hayotining muayyan nuqtalarida o'g'itlar bilan o'g'itlash. O'simliklarni ekologik jihatdan to'g'ri parvarish qilish ularning biologik ehtiyojlari, tabiiy yashash joylari va sharoitlarini bilmasdan amalga oshirilmaydi. Ushbu ma'lumotni gulchilik bo'yicha maxsus adabiyotlardan, shuningdek, uslubiy adabiyotlardan olish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruhidagi tabiat burchagi tabiat burchagi kognitiv funktsiyalarni bajaradi, chunki u odamlarni atrofdagi dunyo bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan. Bu, ayniqsa, shahar bolalari uchun juda muhim, ularning ko'pchiligi faqat uy hayvonlarini suratlarda ko'rgan.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tirik va jonsiz tabiat ob'ektlari bilan tanishadilar, hayvonlarning yovvoyi va uy hayvonlariga bo'linishini o'rganadilar, shuningdek, ularning yashash joylari bilan tanishadilar. Ular hasharotlar, qushlar, turli hayvonlar dunyosi bilan tanisha boshlaydilar. Bolalar o'simlik dunyosini faol o'rganadilar, ular o'tlar, gullar, daraxtlar borligini bilib oladilar. Bolalar ob-havoni (issiq, sovuq, yomg'ir va hokazo) aniqlashni, qum va suv bilan o'ynashni o'rganadilar. Qum va suv bilan o'ynash uchun maydon yaratish foydalidir. Shuning uchun bolalar qum bilan o'ynash uchun to'plamlar, kichik o'yinchoqlar, suv idishlari, sug'orish idishlari va suzuvchi o'yinchoqlardan foydalanishlari kerak. Bolalarning suv o'tkazmaydigan fartuklari kerak, shunda bolalar ehtiyot bo'lishni o'rganadilar.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin va tajribalar orqali atrofdagi dunyoni idrok etadilar. Ular ko'plab yangi ma'lumotlarni o'rganadilar va ularni saqlab qolishlari kerak.

O'rta guruhdagi bolalar hayvonlar haqidagi bilimlarini kengaytiradilar, ularni yashash joylari bilan bog'laydilar: tropik, cho'l hayvonlari; ularning mavjudligi va ovqatlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida. Ular o'simliklarning tuzilishi va har bir qismining funktsiyalari bilan tanishadilar, o'rmonlar, o'tloqlar, daryolar o'simliklarini taniydilar va ekotizim xususiyatlarini tushunadilar.

O'rta guruhda tajribalar faqat kattalar rahbarligida o'tkaziladi.

Katta va tayyorgarlik guruh bolalari allaqachon atrofdagi dunyo haqida yetarli bilimga ega. Ular maktabga tayyorgarlik ko'rmoqda, bu ularning qiziqishlari ko'rinadigan narsalardan tashqarida ekanligini anglatadi: ular osmon jismlari (kosmos), er osti dunyosi (minerallar va toshlar) va mikrodunyoga qiziqishadi. Ular Yer ekotizimining

tushunchasini tushunadilar va o'z tabiatini himoya qilishni o'rganadilar. Bundan tashqari, ular tajriba qilishni o'rganadilar va bu maxsus shartlarni talab qiladi. Bu yoshda bolalar tabiatning bir burchagida mustaqil ravishda navbatchilik qilishadi, lekin tarbiyachi muayyan harakatlarni eslatish yoki taqiqlash uchun g'amxo'rlik qilishi kerak.

Tabiat kalendarlari - bu raqamlar va sanalar va tabiat hodisalari chizmalari uchun cho'ntaklar bilan kengaytirilgan taqvim. Kuzatuv kundaliklaridan foydalanish foydalidir.

III.Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. “Fan va tabiat markazi” ning ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishagi ahamiyatini izohlang?

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida “Fan va tabiat markazi”ni ahamiyati nimada?

3. Guruhlarda “Fan va tabiat markazi”ni tashkil qilishga qanday talablar qo’yiladi?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o’qib o’rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko’rish.

Topshiriq 3. “Muzyorar” interfaol metodini o’rganish va kelgusi darsda qo’llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. “Ilm-fan va tabiat” markazida __

- A. bolalarda sensor tarbiya, ilodkorlik rivojlanadi.
- B. tajriba sinov maydonchasida o’tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg’otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi.
- C. mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol jayoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyatini yaratadi.
- D. bolalar iqtidorini namoyon bo’lishi, o’z mahoratini ko’rsatishi uchun juda qulay muhit yaratadi.

2. Atrofdagi narsalarni kuzatish va o'rganish uchun sharoit yaratib beradigan markaz nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A. Til va nutq
- B. Ilm, fan va tabiat
- C. San'at
- D. Syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish.

3. Tabiat burchagida qaysi hayvonlar tiplarini asrash mumkin?

- A. Kemiruvchilar.
- B. Hasharotlar.
- C. Sut emizuvchilar.
- D. Sudralib yuruvchilar

4. Fan va tabiat markazining jihozlari nimalar kiradi?

- A. rasm chizish uchun albomlar, akvarel uchun qog'oz, mumli qalamlar, pastellar, qora va rangli qalamlar
- B. qum soati, sekundomer; o'lchov stakanlari to'plamlari; ob-havo taqvim; globus, geografik xaritalar, bolalar atlas; tasvirli o'quv kitoblari, plakatlar, rasmlar.
- C. markerlar, flomasterlar (yuviladigan, suv asosli) akvarel va guash bo'yoqlari
- D. yelim-qalam, tabiat materiallari, ikkilamchi materiallar.

5. Guruh xonasida tabiat burchagini yaratishda quyiladigan umumiy talablardan biri –

- A. xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilish, narsalar qo'yiladigan javonning shishali bo'lmasligi;
- B. bolalar sinab ko'rish, natijalarni qidirishda o'z harakatlarini takrorlash va o'simliklarni uzoq muddatli kuzatish orqali tajriba qilishlari mumkin;
- C. o'simliklar yetarli yorug'likka ega bo'lishi uchun yaxshi tabiiy yorug'lik bilan guruh xonasining joylarini tanlang;
- D. bolalarni intellektual qobiliyatlarini, ta'lim shakllarini optimallashtirish va mustaqil faoliyatini tashkil etish.

6. Qaysi burchakda akvariumlardan foydalansa bo'ladi?

- A. Kitob burchagida.
- B. Xilvat burchakda.
- C. Sport burchagida.
- D. Tabiat burchagida.

7. Qanday raqamlar va sanalar va tabiat hodisalari chizmalari uchun cho'ntaklar bilan kengaytirilgan taqvim. Kuzatuv kundaliklaridan foydalanish foydalidir?

- A. Ekotizmlar;
- B. Tabiat himoyachilari;
- C. Ekosistemalar;
- D. Tabiat kalendarlari.

8. Inson va tabiat o'ziga xos o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganadigan fan yo'nalishi - bu:

- A. Ekologiya;
- B. Kimyo;
- C. Fizika;
- D. Astronomiya

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

14-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA "SAN'AT" MARKAZINI TASHKIL ETISH

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida "Fan va tabiat markazi"ni ahamiyati nimada?
2. Guruhlarda "Fan va tabiat markazi"ni tashkil qilishga qanday talablar qo'yiladi?
3. "Fan va tabiat markazi"ni tashkil etishda qanday material va jihozlar bo'lishi kerak?
4. "Fan va tabiat markazi"ga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. "Fan va tabiat markaz"ini tashkil etish uchun tavsiyalar?

"Zinama zina" metodi – bu ta'lim jarayonining eng ommaviy metodlaridan biri bo'lib bu metod asosida darslar qiziqarli va samarali tashkil qilinadi. Bu metodda har bir zinaga chiqish uchun turli ta'limiy didaktik zinalarni bosib o'tishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi darsning har bir bosqichida eng yuqori zinaga yetaklovchi ta'limiy usullardan birini galma- gal qo'llaydi va g'olib bo'lgan talabalarni ballar bilan baholab boradi. Bu metod orqali guruhlarda va individual ishlashga erishiladi. Dars oxirigacha har bir talaba ishtiroki uchun ball to'playdi. Dars oxirida to'plagan ballari asosida har bir talaba baholanadi.

Bu metodni darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida foydalanadi yaxshi nateja beradi. Bu usulda har bir guruh vakili o'z muvafaqqiyati uchun o'zi kurashadi. Bu orqali esa sog'lom raqobat muhiti shakllanadi. Berilgan savolarga javob bergan talabaga 1 ball beriladi va u 1- zina yuqoriga chiqiladi.

II. Yangi mavzuning bayoni:

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni

ma'naviy anglashning maxsus turidir. "San'at" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

"San'at" tushunchasi insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati, hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi, ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir.

"San'at" markazida –bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni mavjud. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini kullab kuvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik turlariga hamma uchun ham iqtidor berilmagan. Shuning uchun bu markazga kamroq bola qatnashi mumkin. Lekin markazga kerakli jihozlarni to'liq qo'yilsa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlash orqali bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bolaning nutqini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ushbu markaz bolajonlar uchun juda ham sevimli markaz sanaladi. Sababi bolajonlar unda rasmlar chizib, raskraskalar bo'yashadi, aplikatsya ishlarini, plastelindan o'zlari xohlagan narsalarni yasab, erkin faoliyat olib borishadi.

Guruhda tegishli rivojlanish predmeti-fazoviy muhitini tashkil etish har bir bolaning ijodiy salohiyatini to'liq ochib berishga yordam beradi. Rivojlanayotgan fan-fazoviy ta'lim muhiti muhim rol o'ynaydi: bolalar ijodiyotini rivojlantirish markazlari, ijodiy ustaxonalar, tasviriy san'at burchaklari. Ularning maqsadi bolalarning ijodiy faoliyati uchun guruhda muhit yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil badiiy faoliyatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam berishdir.

- turli xil vizual materiallar: mum, akvarel, pastel rangli qalamlar, jel qalamlar, markerlar, siyoh, ko'mir, oddiy va rangli qalamlar,

flomasterlar, o'chirgichlar, o'tkirlashtirgichlar, akvarel bo'yoqlari, turli o'lchamdagi va qattiqlikdagi cho'tkalar, suv idishlari, cho'tka ushlagichlari.



- modellashtirish, applikatsiya qilish uchun materiallar;
- rang idrokini rivojlantirish uchun materiallar (palitralar, rangli suv olish uchun stakanlar, rangli plyonkalar, shisha bo'laklari, o'quv o'yinlari va boshqalar);



- grafik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun materiallar (o'lchagichlar, trafaretlar, turli xil soyalar uchun spirograf o'lchagichlar, didaktik o'yinlar va boshqalar);

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. "San'at markazi" ning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishagi o'rnini qanday baholaysiz?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida "San'at markazi" ning ahamiyati nimada ekanligini izohlang?
3. Guruhlarda "San'at markazi" ni tashkil qilishga qanday talablar qo'yiladi sanab bering?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "F.S.M.U" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

1. "San'at" markazi qanday mashg'ulotlar bilan bog'liq?

- A. Tabiat, atrof-olam bilan tanishtirish mashg'lotlari;
- B. Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot mashg'lotlari;
- C. Rasm, applikasiya, loy, qurish-yasash mashg'lotlari va origami;
- D. Qurish-yasash va matematika mashg'ulotlari.

2. "San'at" markazi qanday ahamiyatga ega?

- A. muloqotni rivojlantirish, o'zaro aloqa qilish qobiliyatini shakllantirish
- B. kattalar va tengdoshlari bilan maktabgacha yoshdagi bola;
- C. mustaqillikni, o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirish va ularning harakatlarini yo'naltirish;
- D. bolalarni kayfiyatini ko'taradi, ijodiy qobiliyatlarini qullab-quvatlanadi va bolaning mayda motorikasi rivojlanadi.

3. San'at markazi orqali bolaning qaysi ko'nikmasi eng avvalo rivojlanadi?

- A. Matematika bilimlari
- B. Mayda matorika
- C. Jismoniy kuch
- D. Iqtisodiy fikirlash.

4. Quyidagilardan qaysi biri san'atning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?

- A. Texnik jarayonlarni avtomatlashtirish.
- B. Estitek tarbiya va ma'naviy boyitish.
- C. Qonuniy tartiblarni o'rnatish.
- D. Itisodiy rejalashtirish.

5. San'at insoniyat taraqqiyotida qanday o'rin tutadi?

- A. Asosan moddiy ehtiyojlarni qondiradi
- B. Faqat din bilan bogliq faoliyatdir
- C. Ma'naviy ong va estetik didni shakillantiradi
- D. Faqat tarixiy yodgorliklar yaratadi.

6. Qaysi markazda bolalar suv olishlariga qulay bo'lishi uchun uni rakovina yaqiniga joylashtirish ma'qul bo'ladi?

- A. Til va nutq;
- B. Syujetli rolli;
- C. San'at;
- D. Fan va tabiat.

7. Bolalar san'at ishlarida nimalarni aks ettiradilar?

- A. Faqat hayvonlar tasvirini.
- B. Ertak qahramonlarning hayotini.
- C. O'z hayotida va jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni
- D. Fantastik voqealarni.

8. MTTda san'at markazidagi faoliyat bolaning qaysi rivojlanish sohasiga eng ko'p ta'sir qiladi?

- A. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga;
- B. Faqat jismoniy rivojiga;
- C. Nutq rivojlanishiga;
- D. Matematika ko'nikmalariga

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil


15-MAVZU: GURUHLARDA RIVOJLANISH MARKAZLARINING TAXMINIY JOYLASHUVI

I. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshriqlar

1. "San'at" markazining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishagi o'rnini qanday baholaysiz?
2. "San'at" markazini tashkil etishda qanday material va jihozlar bo'lishi kerak?
3. "San'at" markaziga material va jihozlarni tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

F.S.M.U. metodi

F.S.M.U. metodining tavsifi: Bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir. Bu metod talabalarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holatda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatini shakllantirishga, shu bilan bir qatorda, talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga va baholashga o'rgatadi.



II.Yangi mavzuning bayoni: Rivojlanayotgan sub'ekt-fazoviy muhitni qurishning eng muhim tamoyillaridan biri bu o'zgaruvchanlik printsipli bo'lib, guruhda turli xil mavjud markaz va burchak katta rol o'ynaydi.

№	Rivojlanish markazlari	Joylashtirish bo'yicha tavsiya
1	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Bu markazni zonalash muhim, shunda uning yonidan o'tayotganlar qurilmalarni buzib yubormaydi. Bo'sh joy yetishmagan taqdirda bu markazni yotoqxonada ham joylashtirish mumkin
2	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	Ushbu markaz yonma-yon joylashtirilishi yoki birlashtirilishi mumkin. Agar markazda yumshoq modulli mebel, shuningdek, oshxona mebellari mavjud bo'lsa, markaz dam olish joyi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.
3	Til va nutq	Ushbu markaz guruhning eng tinch qismida, bolalar faol faoliyati zonasidan uzoqroqda joylashgan bo'lishi mumkin. Ushbu markazda bolalar uchun kichik kutubxona ham bo'lishi mumkin. Agar bolalar modulli yumshoq mebellari mavjud bo'lsa, kitoblarni o'qish va ko'rish uchun kichikroq joy ajratish mumkin.
4	Fan va tabiat	Bu markazni tabiiy yorug'lik yetarli bo'lgan joyga joylashtirish yaxshiroq, chunki bu yerda xona o'simliklari shuningdek, akvarium, qushlar joylashishi mumkin. Bundan tashqari, turli tajribalar uchun mustahkam, barqaror yuzali stol bo'lishi tavsiya etiladi.
5	San'at	Bolalar suv olishlariga qulay bo'lishi uchun uni rakovina yaqiniga joylashtirish ma'qul bo'ladi.

Shuningdek, guruhlarda siz turli xil tashkillashtirilgan joylarni taqdim etishingiz mumkin.

№	Joyni tashkil etish	Joylashtirish bo'yicha tavsiyalar
1	Guruh yig'ilishi va katta guruhda tadbirlar uchun joy	Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida ushbu zonalarini tashkil qilish uchun yetarli joy yo'q, shuning uchun, qoida tariqasida, bu zonalar ko'pfunktsiyali markazga birlashtirilgan. Shu sababli, bu yerda atrof-muhitning ko'chirilishi muhim ahamiyatga ega – bu bolalar ishtirokida bo'sh joyni tezda o'zgartirish va guruh yig'ilishlari (ertalabki va kechki davra), mashg'ulotlar o'tkazish, ovqatlanish uchun joy ajratish va qayta tartibga solish imkonini beradigan yengil yig'iladigan stol va stullarning mavjudligi.
2	Ovqatlanish uchun joy ("Kafe", "Oshxona")	
3	Sport burchagi	Odatda bu burchak kirish xonasida joylashgan bo'lib, u yerda turli xil bolalar sport anjomlari va harakatli o'yinlar uchun atributlar joylashtirilgan, agar kerak bo'lsa, ularni tashqariga ham olib chiqish mumkin.
4	Dam olish joyi	Guruhda bolalarning dam olishlari uchun yumshoq modulli bolalar mebellari bilan jihozlangan joylarni tashkil qilishi mumkin, ular (divan, kreslolar, banketkalar); ularning imkon qadar qulay va shinam bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joyni "Til va nutq" markazida tashkil qilish mumkin, bu yerda bola yolg'iz bo'lishi mumkin; bu joy juda katta bo'lmasligi kerak, u yerda 2 ta bola sig'adigan joy bolsa etarli bo'ladi. Bu yerda bolalarning tinchligini buzadigan va dam olishiga xalaqit beradigan faol o'yinlar o'tkazilmaydi
5	Xilvat burchak	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun doimo katta guruhning bir qismi bo'lish katta yukdir. Shuning uchun, guruhga bolalar uchun xilvat joy ajratish tavsiya etiladi. Y yerga stol va ikkita stul qo'yib, bolalar o'zlari xohlagan o'yinni o'ynashlari, kitoblarni ko'rib chiqishlari va shunchaki o'tirishlari mumkin

Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Davlat o'quv dasturi asosida tashkil etiladigan faollik markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'рни shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir.

III. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Guruhlarda markaz va burchak uchun materiallar bolalarning qanday maqsadini hisobga olgan holda tanlanadi izohlang?
2. Sport burchagini tashkil etish tartibi haqida gapiring?
3. Badiiy kitoblar burchagi dizayniga qanday talablar qo'yiladi izohlang?
4. Tabiat burchagi qay tartibda tashkil etilishini tushuntiring?

IV.Uyga vazifa berish:

Topshiriq 1. Yangi mavzuni o'qib o'rganish mavzuning asosiy qismlarini konspekt qilish.

Topshiriq 2. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollarga tayyorgarlik ko'rish.

Topshiriq 3. "Klaster" metodini o'rganish va kelgusi darsda qo'llash uchun tayyorlanish

Test topshiriqlari

- 1. "Yerga stol va ikkita stul qo'yib, bolalar o'zlari xohlagan o'yinni o'ynashlari yoki shunchaki o'tirishlari ham mumkin" bu burchak –**

- A.Tabiat burchagi.
- B.Sport burchagi.
- C.Xilvat burchak.
- D.Kitob burchagi.

- 2.Qaysi burchakda akvariumlardan foydalansa bo'ladi?**

- A. Kitob burchagida.
- B.Xilvat burchakda.
- C.Sport burchagida.
- D.Tabiat burchagida.

- 3.Xona ichida va tashqarisida o'yin uchun imkoniyat yaratishda pedagog nimalarga amal qiladi?**

- A.O'z bilimiga
- B.Xavfsizlik talablariga
- C.Faqat maktab rahbariyatiga
- D.O'yin o'tkazish qoidalariga

4.Burchak uchun materiallar tanlashda nimalar hisobga olinadi?

- A.Faqat rang barangligi
- B.Bolalarning yosh va individual imkoniyatlari
- C.Xonaning kattaligi
- D.Dasturga mosligi.

5.Sport burchagi odatda qayerda joylashtiriladi?

- A.Mashg'ulot xonasida.
- B.Musiqa zalida.
- C.Kirish xonasida
- D.Yotoqxona yonida.

6.Dam olish joyi qanday mebellar bilan jihozlanadi?

- A.Yog'och stellar va stellar.
- B.Yumshoq modulli mebellar (divan, kreslo, banketka)
- C.Faqat gilam.
- D.Sport anjomlari.

7.Xilvat burchakning asosiy vazifasi nima?

- A.Bolalarni sportga o'rganish.
- B.Faol o'yinlarni tashkil etish.
- C.Bolaga yolg'izlik va tinchlik muhitini yaratish.
- D.Guruh bo'lib dars qilish.

8.Burchaklarni tashkil etishda xavfsizlikning asosiy tamoyili nima?

- A. Rang - baranglikni ta'minlash.
- B.Juda ko'p o'yinchoqlar qo'yish.
- C.Yoshga mos va xavfsiz vositalar tanlash.
- D.Faqat yangi vositalardan foydalanish.?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil.
2. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.

3. Qodirova F.P, Toshpo'latova Sh.Q, Qayumova N.M, Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik, T.; Tafakkur. 2019
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ni tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qaror. 22.12.2020yil

IZOHLI LUG'ATLAR

<i>Termin</i>	<i>O'zbekcha</i>	<i>Ruscha</i>	<i>Inglizcha</i>
Maktabgacha ta'lim	maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon.	Дошкольное образование	Pre-school education
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti	Дош- кольные образова- тельные учреждения	Prescholl educationa l establish ments
Maktabgacha ta'lim va tarbiya	bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviyaxloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.	Дошкольное образова- ние и воспитание	Pre-school education and upbringing
Ta'lim	bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.	Образо- вание	Education
Tarbiya	bu jamoa va pedagoglarning tarbiyalanuvchiga shaxsni mazmunan maqsadli shakllantirishdan	Образо- вание	Education

	iborat bo'lgan, maxsus tashkil etilgan, maqsadli va boshqariladigan ta'siri. Shu bilan birga, ta'lim tashkilotida va oilada ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liqdir.		
Rivojlanish (pedagogi- kada)	olg'a intilish natijasida muntazam o'zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish.	Развитие (в педагогике)	Development (in pedagogy)
Rivojlanish markazi	ta'lim va tarbiya jarayoni mazmunining imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhdagi rivojlanish maydonlari tashkil etish.	центр разработки	development center
Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar.	Bolalar jismoniy faollik orqali yanada samaraliroq o'rganadilar va kun davomida yuqori darajadagi jismoniy faollik, turfa xillik va stimulning o'zgarishiga extiyoj sezadilar.	Пространства для соответствующей развитию физической активности.	Spaces for developmentally appropriate physical activity.
Didaktik o'yin	o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.	Дидактическая игра	Didactic game
Jamoa an'analari	jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.	Традиции сообщества	Community traditions
Jismoniy tarbiya	bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan	Физическая культура	Physical education

	mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.		
Ijtimoiy-lashuv	ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.	Социализация	Socialization
Individuallik	shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.	Индивидуальность	Individuality
Yosh xususiyatlari	muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.	Возрастные характеристики	Age characteristics
Korreksiya	(yunoncha "correctio" - tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.	Коррекция	Correction
Ko'nikma	olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.	Навык	Skill
Ko'rgazmali metodlar	predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.	Методы демонстрации	Demonstration methods
Madaniyat	("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy	Культура	Culture

	ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.		
Mazmun	(ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.	Содер- жание	Content
Malaka	ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.	Квали- фикация	Qualificati on
Ma'lumot	ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.	Инфор- мация	Infor- mation
Maktabgacha yosh	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamon milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri	Дошколь- ный возраст	Preschool age
Maktabgacha bolalik	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga yetishi va ruhiyatining shakllanishi bilan belgilanadi.	Детский дошколь- ный период	Preschool period
Maktabgacha yoshdagi bola kompetent- ligi	O'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos	Компетенци я ребенка дошкольног о возраста	Com- petency of prescholl age child

	keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.		
Milliy an'analar	Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha.	Национальные традиции	National traditions
Yosh guruhi	Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTTda bolalarning yoshiga ko'ra ana'naviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.	Младшая группа	Primary group
Rag'batlantirish	tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab- quvvatlash usuli.	Поощрение	Encouragement
Suhbat	savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.	Беседа	Conversation
Tamoyil	(yunoncha "principium") – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi;	Принцип	Principle
Tarbiya	muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	Образование	Education

Tarbiyachi	Tarbiyani amalga oshiradigan , o'zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxs.	Воспитатель	Educater teacher
Tarbiya jarayoni	pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.	Образовательный процесс	Education process
Tarbiya maz-muni	shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.	Содержание образования	Content of education
Tarbiya metodi	(yunoncha "metodos" – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.	Метод обучения	Method of education
Kom-munikativ kompetentsiya	muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.	Коммуникативная компетентность	Communicative competence
O'yin kompetentsiyasi	bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.	Игровая компетентность	Game competence
Ijtimoiy kompetentsiya	hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalarini va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish	Социальная компетентность	Social competence

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni Qonunchilik palatasi 19-mayda yangi tahrir 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022.
5. Alimova Z.K. "Maktabgacha pedagogika" O'quv qo'llanma. Ilm ziyo zakovat. T.; 2021.
1. Axmedova M. E. «Pedagogika nazariyasi va tarixi» o'quv qo'llanma T.: 2011.
2. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Darslik T.: "Barkamol avlod fayz" 2018.
3. Hasanboyeva J. To'raqulov X. A. Alqarov I. Sh. Usmanov N. O'. «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020.
4. Ivanov P. I. Zufarova M. E. «Umumiy psixologiya» darslik «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» T.: 2008.
5. Nishanova, Z.T. «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» darslik «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» T.: 2018
6. Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. Darslik "Cho'lpon" T.:2010y
7. Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. o'quv qo'llanma D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010-yil.
8. Musurmonova A. «Umumiy pedagogika» o'quv qo'llanma «O'zkitobsavdonashriyoti» T.: 2020..

9. Maxnudova M. «Muloqot psixologiyasi» o'quv qo'llanma «Turon-iqbol» T.: 2006.
10. Mavlonova R. To'rayeva O. Xoliqberdiyev K. «Pedagogika» darslik «O'qituvchi» T.: 2008.
11. Rajamuradov Z. T. va boshqalar «Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi» darslik «Tafakkur bo'stoni» T.: 2013.
12. Roziqova M, Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi Metodik qo'llanma Toshkent, 2013`
13. Umarov B. M. «Psixologiya» darslik «Voris-nahriyoti» T.: 2012.
14. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh. Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik T.: Tafakkur, T- 2019.

Mundarija:

Kirish	3
1-mavzu: Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari va mazmun-mohiyati	5
2-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari.....	12
3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv.....	22
4-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida o'yinning ahamiyati.....	32
5-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish.....	39
6-mavzu: Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni 5ta rivojlanish markazlarini tashkil etish.....	47
7-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda rivojlantiruvchi markazlarni roli	54
8-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat o'quv dasturini amalga oshirishda resurs va ta'minotiga qo'yiladigan talablar.....	61
9-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yillik mavzuli reja haftalik reja tuzishda rivojlanish markazlarni ahamiyati.....	69
10-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi"ni tashkil etish.....	78
11-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi"ni tashkil etish.....	87
12-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Til va nutq markazi"ni tashkil etish.....	97
13-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Fan va tabiat markazi"ni tashkil etish.....	104
14-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida "San'at" markazini tashkil etish.....	112
15-mavzu: Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi.....	118
Izohli lug'atlar	125
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	131

ALIKULOVA MUXAYYO SHEROVNA

RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNI TASHKIL ETISH

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

Muharrir: B. Musayev

Musahhih: I. Tog'ayev

Texnik muharrir: K. Quدراتova

Kompyuterda sahifalovchi: F. Akramova

Tasdiqnoma. 5165, 02.03.2021.

Terishga berildi: 14.10.2025 y.

Bosishga ruxsat etildi: 11.11.2025 y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.

“Cambria” gar. Ofset bosma.

Hisob nashriyot t.: 8,38. Shartli b. t.: 8,22.

Adadi: 20 nusxa. Buyurtma №232

«Ilm-Fan-Ma'naviyat» nashriyotida tayyorlandi.

Qarshi sh, Bunyodkor MFY Mustaqillik ko'chasi 10/28-30-uy

“Photo Express” I. Ch. korxonasida chop etildi.

Qarshi sh, Mustaqillik ko'chasi 22- uy

Telefon 91-466-80-32.